

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix kafedrası

Rajabova Ma'rifat O'ktamovnaning

“5120300- tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)” ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

“O'rta Osiyoda qadimgi va o'rta asrlar san'ati taraqqiyoti”
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: k. o'q A. Do'stov

“Himoyaga tavsiya etildi”

Tarix fakulteti

dekani _____ dots. F. Raxmonov

“ _____ ” 2015 yil

Qarshi shahri, 2015 yil

Mundarija

Kirish	3
I bob. Qadimgi davrlarda O'rta Osiyo san'ati.	
I.1. O'rta Osiyoda ilk san'at namunalari vujudga kelishi va taraqqiyoti.....	7
I.2. Kushonlar davrida san'at.....	17
II bob. O'rta asrlarda O'rta Osiyoda san'at taraqqiyoti.	
2.1. Ilk feodalizm davrida O'rta Osiyoda san'at.....	24
2.2. O'rta Osiyo san'ati va madaniyati taraqqiyotining yangi bosqichi XIV-XV-asrlar)	52
Xulosa	71
Tavsiyalar	73
Foydalanilgan adabiyotlar	74
Ilovalar	76

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: "Inson turli chegaralarni tuzadi, ammo san'at chegarani bilmaydi. G'arbu sharqda ham, shimolu janubda ham u inson manzaralarini namoyish etaveradi. San'atning mintaqasi ham chegarasizdir".¹

Hozirgi kunda mamlakatimizda davlat muhofazasiga olingan 8180 ta madaniy meros ob'ektlari bo'lib, shundan 2495 tasi me'morchilik, 4781 tasi arxeologik, 615 tasi esa monumental yodgorliklar va 256 tasi diqqatga sazovor joylardir.

YUNESKOning moddiy va tabiat yodgorliklari merosi ro'yxatiga Xivadagi Ichan qal'a, Samarqand, Buxoro, Shaxrisabz shaharlarining diqqatga sazovor yodgorliklari kiritilgan.²

Prezident Islom Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: "Sharq olamida, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida rivojlangan madaniyatning mavjud bo'lgani haqida qadimgi baqtriya, so'g'd, o'rxun, xorazm yozuvlarida bitilgan yodgorliklar, devoriy tasviriylar san'at asarlari va haykalchalar, arxitektura namunalari dalolat beradi."³

O'rta Osiyo xalqlari dunyodagi eng qadimiy tarixga ega bo'lib, shimoliy Afrika, O'rta yer dengizi atroflari va Kichik Osiyo hududlarida yashab kelayotgan xalqlar bilan bellashadilar.

¹ Karimov. I. A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., 1998. 120-bet.

² O'zbekiston ovozi//. Madaniy meros-qadriyatlarimiz ko'zgusi. 18.04.2015. №45 (31.948)

³ "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati" xalqaro konferensiya materiallari. 15-16 may, Samarqand. T: O'zbekiston- 2014.

Tarixiy manbalarda o'lkamizda tasviriyl san'atning vujudga kelishi 35-12-ming yilliklarni o'z ichiga olishi qayd etiladi¹.

O'lkamizdagi dastlabki san'at namunalaridan bo'lgan qoyatosh rasmlarning eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Birunsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilar bo'lib, ular yuzdan ziyoddir. Mazkur joylardagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin.

Panjikent devoriy suratlariga yaqin va deyarli u bilan bir vaqtda taxminan, VII - VIII asrlarda ishlangan Varaxsha devoriy suratlari ichida ov manzarasi yaxshi saqlangan. Bu suratda fil ustida ketayotgan odamlarga sherning hujumi tasvirlangan bo'lib bu kompozitsiya o'zining dinamikasi va ajoyib rang gammasi bilan ijodkorning yuksak mahorat egasi ekanligini isbotlaydi.

1961-1965 yillari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va Arxeologiya instituti xodimlari ilmiy safar chog'ida Afrosiyobda (Samarqandda) V-VII asrlarga oid saroy xarobalarini ochdilar. Saroy mehmonxonasining devorlari turli mazmundagi suratlar bilan bezatilgan².

Ayniqsa elchilar kelishiga bag'ishlangan kompozitsiya ishlanishi diqqatga sazovordir. Bu topilma yana bir bor O'rta Osiyo ilk feodalizm asridayoq yuksak madaniyat mavjud bo'lganligini jahonga namoyish etdi.

2006 yilda Italiyaning Venetsiya shahrida Afrosiyob devoriy suratlariga bag'ishlangan maxsus ilmiy anjuman chaqiriladi va unda dunyoning 10 dan ortiq davlatlaridan yetuk mutaxassislar ishtirok etib o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashishdi.³

¹ O'zbekiston tarixi solnomasi. 2-nashri. T.: 2011. 4-bet.

² Ahmedov. B. O'zbekiston tarixi manbalari. T.: 2001. 56-57-betlar.

³ Boboyorov G'. Afrosiyob devoriy rasmlari. Moziydan sado //. 2007. № 3 (35). 22-25- betlar.

Xitoy manbalarida yozilishicha, VI-VII asrlarda Turk xoqonligida tasviriy san'at haykaltaroshlik ancha tarqqiy etgan.¹

O'rta Osiyo ilk feodalizm asrida monumental-dekorativ rang tasviri to'g'risida fikr yurutganda, Vaxsh vohasidan topilgan (O'zbekiston va Tojikistonning janubi), "Ajina tepa" devoriy suratlarini, Termiz yaqinidan topilgan "Yumaloq tepa" unga yaqin joylashgan "Bolalik tepa" devoriy suratlarini eslamay bo'lmaydi. Bu suratlar xarakterining shakllanishida shu davr monumental-dekorativ rang tasviriga xos uslub mavjud bo'ib, bular birlikda O'rta Osiyo ilk feodalizm asrida bu san'atning yuksak bo'lganligi bu san'atda turli uslub va yo'nalishlar mavjud bo'lganligi yana bir namoyon qiladi.

Arablarning O'rta Osiyo yerlariga kirib kelishi (VII-VIII asrlar) xalqning katta baxtsizlikka duchor qildi, tinch hayotini buzib rivojlanib borayotgan iqtisodiy va madaniy hayotini izdan chiqardi. O'rta Osiyo xalqlarining eski dini va u bilan bog'liq bo'lgan hamma yodgorliklarni buzdilar, vayron qildilar. Qimmatbaho metallardan ishlangan haykal va amaliy san'at buyumlari talandi, eritilib yuborildi, devoriy suratlar esa qirib tashlandi; loy va albastrdan yasalgan haykallar parchalandi².

XIV–XV asrlarda O'rta Osiyo san'ati va madaniyati o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi. Bu davrga kelib, dastlab O'rta Osiyoda Amir Temur (1336-1405) hokimyat tepasida bo'lgan davrda Samaqand sharqdagi yirik davlat markaziga aylandi. Shahar atrofida obod qishloqlar barpo etildi. O'rta Osiyoning bir qator yerlariga yirik inshootlar qurdirdi. Temur va temuriylar davrida nafis kitob va xattotlik san'ati, musiqa san'ati, tasviriy san'at ham rivoj topdiki, uning tarixi, jozibasi, jilosi hali-hanuz o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

¹ R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T., 2010. 125-bet.

² R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T., 2010. 135-bet.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.

- O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar davri san'ati taraqqiyoti tarixini manbalar yordamida tahlil etish;
- O'rta Osiyoda qadimgi va o'rta asrlar san'ati taraqqiyoti tarixini manbalar yordamida ochib berish;
- O'rta Osiyoda qadimgi va o'rta asrlar san'ati taraqqiyoti tarixini turli ilmiy adabiyotlar, o'quv qo'llanmalardan foydalanib yoritib berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va ahamiyati.

- O'rta Osiyoda qadimgi va o'rta asrlar san'ati taraqqiyoti tarixi ko'rsatib o'tildi;
- O'rta Osiyoda qadimgi va o'rta asrlar san'ati taraqqiyoti tarixi batafsil yoritildi;
- To'plangan ma'lumotlardan Oliy o'quv yurtlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, o'rta umumiy ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishda, referat, mustaqil ishlari tayyorlash va amaliy mashg'ulotlari hamda axborot soatlarida manba sifatida foydalanish, OAVlarida maqolalar chop etish mumkin.

Ishning aprabatsiyasi. Bitiruv malakaviy ish Qarshi davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti "Tarix" kafedrasida qoshidagi "Yosh tarixchi" to'garagida, hamda 2014-2015 o'quv yilidagi talabalarning ilmiy-amaliy konferensiyasida ma'ruza qilingan.

Tadqiqot ishining tuzilishi. Tadqiqot ishi kirish, ikkita bob, to'rta bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. Qadimgi davrlarda O'rta Osiyo san'ati.

I.1. O'rta Osiyoda ilk san'at namunalari vujudga kelishi va taraqqiyoti.

“Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zaminda ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa islom bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga etgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftihar bag'ishlaydi”¹, - deb yozadi Prezidentimiz Islom Karimov.

Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi tabiiy-iqlimiy sharoitlar bu mintaqada o'troq- dehqonchilik madaniyatlari va sivilizatsiyalar ilk shakllanishi yuzaga kelishiga imkon tug'dirgan².

Chorvachilik bilan shug'ullanish, katta-katta yerlar suv chiqarish ishlarini amalga oshirishni talab etar va bu yerlarni ishlarni ko'pchilik kuchi bilan amalga oshirish mumkin edi. Natijada bu yerlarda ayniqsa uning janubiy tomonlarida odamlar yashaydigan katta manzillar yuzaga kela boshladi. Eramizdan avvalgi 3-2 mingchi yilning boshlarida 10000 va undan ortiq odamlar yashaydigan manzillar-shaharlar yuzaga kela boshladi. O'rta Osiyoda ilk sinfiy jamiyat rivojlanib bordi. Shunday manzillar markazida yirik qo'rg'on va hukmdorlarni hashamatli saroylari bo'lgan. Bu saroy va turarjoy binolarining devor va pollari ko'proq geometrik naqshlar bilan pardoqlangan. Eramizdan avvalgi 1 minginchi yillarda O'rta

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: “O'zbekiston” 2008. 30-6et.

² Xakimov A. O'zbekiston davlatchiligining shakllanishida madaniyat va san'atning roli. Moziydan sado // . 2003. №3-4 (19-20)

Osiyoda dastablabki ibtidoiy davlatlar shakllana bordi. Zardushtiylik (er. av. VII asr) dini yoyildi. Uning muqaddas kitobi Avesto esa shu qarashlarni targ'ib etdi.

Bizgacha saqlanib kelgan qal'a, saroy, turar joy va qabrlar bilan birga zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lgan turli ossuariylar (astodonlar) deb ataluvchi odamlar suyagini saqlash uchun mo'ljallangan sopoldan yasalgan idishlar muhim tarixiy ashyo bo'lib xizmat qiladi. Bunday ossuariylar bo'rtma va dumaloq tasvirlar bilan bezatilgan, bazilarida esa hayotiy voqealarni aks ettiruvchi suratlar mavjud.

O'rta Osiyoning qadimgi davri san'ati va madaniyatini o'rganishda yer ostidan, qabrlardan topilgan turli amaliy dekorativ san'at namunalari, jang, ov va mehnat qurollari ham muhim rol o'ynaydi. Sopol buyumlar bronza, oltin, kumushdan ishlangan kishilar ehtiyoji uchun ishlatiladigan buyumlar yuzasi naqshlar bilan bezatilgan bo'lgan, bo'rtma tasvir va haykallar bilan pardoqlangan. Ayrim buyumlar yuzasiga esa hayotiy voqealar aksi tushurilgan. Ana shu ashyoviy materiallar o'tmish san'ati va madaniyati, kishilarning estetik, badiiy qarashlarini bilishga xizmat qiladi.

O'rta Osiyo tarixida neolit davrining (yangi tosh asri) yuqori chegarasi mil. avv VI quyi chegarasi IV-III ming yilliklar bilan belgilanadi. Bu davr Osiyoda uchta: Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlarining rivojlanishi bilan izohlanadi.

Neolit davri qabilalari aksariyat hollarda daryo sohillari va tarmoqlari yoqasida, ko'l bo'ylarida yashab, tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik va chorvachilik, ayni vaqtda qisman hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Neolit davri turli sharoitlarda yashagan odamlarning mehnat qurollari mezolit davridagiga nisbatan takomillasha borgan.

Joytun madaniyati Janubiy Turkmanistonda Ashxobot shahridan 25 km shimoldagi Joytun manzilgohidan topilgan bo'lib, bu madaniyat qoldiqlari nafaqat Turkmaniston, balki butun O'rta Osiyoda mashhurdir. Joytun qishlog'i bir necha

uylardan tashkil topgan bo'lib, uylarning maydoni 12-14 kv metrdan iborat. Uy devorlari somon aralashtirilgan paxsadan qurilgan. Uylar to'g'ri to'rtburchak bo'lib, bir xonalik va har bir xonada alohida o'choq izlari topilgan. Uylar yonida esa omborxona, saroy va xo'jalik o'ralari ham bor.

Tadqiqotchilar fikrlariga qaraganda Joytunda 30 ga yaqin uy bo'lib unda 130-150 kishi yashagan, 5-6 kishilik oila yashagan uylarda ona urug'i hukmron bo'lgan. Uylardan ayollarning loy va toshdan yasalgan haykalchalari, shuningdek, har xil taqinchoq va bezaklar topilgan. Joytun xarobalaridan bug'doy, arpa izlari, yorma tosh, tosh boltalar, parrakchalar, qurol sifatida ishlatiladigan o'tkir uchli toshlar, teshgich parchalar, qirg'ichlar, kamon o'qlarining uchlari paykonlar topilgan.

Joytun makonidan qo'lda ishlangan sopol idishlar namunalari ham topilgan bo'lib, ular O'rta Osiyodagi dastlabki sopol namunalaridir. Joytun qishlog'i aholisi mil. avv. VI-V ming yilliklarda yashab asosan dehqonchilik, chorvachilik, qisman esa ovchilik bilan shug'ullanganlar. Joytunda O'rta Osiyodagi dastlabki dehqonchilik madaniyati rivojlanadi va bu makon hozircha mintaqadagi dastlabki dehqonchilik qishlog'i hisoblanadi. Joytunliklar sun'iy ariq va kanallar qazib sug'orma dehqonchilikka asos solganlar. Umuman olganda Kopetdog' bilan Qoraqum oralig'idagi hududlardan ko'plab neolit davri makonlari ochilgan. Bu makonlardagi xo'jalik ishlab chiqarishi va madaniyati bir-biriga juda o'xshashligi sababli ularni fanda Joytun madaniyati (dastlabki topilgan joy nomi bilan) deb atash qabul qilingan.¹

Eramizdan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning anchagina qismi Axmoniyalar podsholigi tarkibiga kirdi va deyarli ikki yuz yil mobaynida

¹ O'zbekiston tarixi. T., 2003, 675- bet.

uning ta'sirida bo'ldi. Shu davr mobaynida O'rta Osiyo xalqlari Axmoniyilar davlatiga kirgan xalqlar bilan yaqin munosabatda bo'ldi, ulardan ta'sirlandi. Shuningdek, ularga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Dunyoda eng qadimgi birinchi tanga pullar Yunoniston, Midiya, Kichik Osiyo va Xitoyda millodan avvalgi VII - VIII asrlarda muomalaga kiritilgan. O'zbekiston qadimdan tovar-pul munosabatlari rivojlangan davlatlardan biri bo'lganligi uchun bu hududda siyosiy, iqtisodiy mustaqillik ramzi bo'lgan tanga pullar zarb qilingan. Tarixchilarning tadqiqotlariga ko'ra millodan avvalgi V-IV asrlarda Axmoniyilar mavjudligi ham O'rta Osiyo badiiy hayoti va intilishlining kengligidan dalolat beradi. Bu asarlarni qayerda, kim tomondan yaratilganligini aytish qiyin bo'lgangi holda ularning O'rta Osiyo tuprog'idan topilishi, so'zsiz uning atrofidagi mamlakatlar bilan yaqin aloqada bo'lganligidan dalolat beradi, nafis buyumlarga intilish kuchli bo'lganligini ko'rsatadi.

Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarga oid kulolchilik buyumlari shu davrning birmuncha mo'l fartik materialidir. O'rta Osiyo yerlaridan topilgan ko'pgina sopol buyumlar kulolchilik dastgohlarida ishlangan, maxsus pechlarda pishirilgan. O'rta Osiyoning ellinistik dunyoga tortilishi uning san'ati va madaniyatida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu o'zgarishlar me'morchilik, amaliy va tasviriy san'at mazmuni va xarakterida namoyon bo'la boshladi. O'rta Osiyoning ellinistik davridagi me'morligi xarakteri uning janubiy rayonlarida seziladi. Plutarxning yozishicha "Iskandar Sharq vakillarini yunon ma'daniyatidan bahramand qilishga uringan ekan. Hatto O'rta Osiyoda bo'lganida "...yerli aristokratlarning 30 ming o'g'illarini tanlab olib, ularga yunon tilini o'rgatib grek madaniyati ilmidan ta'lim berishni"¹ buyurgan ekan.

Baqtriya, Marg'iyona va So'g'diyona kulol ustalari yasagan sopol idishlar o'ziga xos san'at asarlari darajasiga ko'tarilgan. Bundan tashqari shoxona saroylar,

¹ Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T., "Fan", 1992. 94-bet.

ibodatxonalar, mudofaa inshootlari va uy-joy qurishda o'lkamiz xalqlari antik davr olamida tengsizlik darajasiga ko'tarilganlar.

Ayni paytda tasviriy san'at, amaliy san'at, me'morchilik zargarlik san'ati sohasida katta yutuqlarga erishildi. Jumladan, Baqtriyaning qadimgi Begrom shahrida olib borilgan qazish ishlari vaqtida yuksak mahorat bilan fil suyagiga ishlangan san'at asarlari topildi. 1978-1979 yillarda Tillatepada olib borilgan qazish ishlari chog'ida (Janubiy Baqtriya) 25 ming donadan ortiq oltindan ishlangan san'at asari topildi. Bu topilmalarning ko'pchiligi Yunon-Baqtriya davlati davriga ta'lluqlidir. Yoki Dalvarzintepada olib borilgan qazish ishlari vaqtida (1972 yil) 34 kg og'irlikda tilladan ishlangan 215 dona san'at asarlari topildi. Qazish ishlari jarayonida topilgan ashyolar, dalillar bu davrda toshga ishlov berish san'ati yuksak darajada rivojlanganligidan guvohlik beradi. Tarixiy manbalarda Baqtriya yuksak rivojlangan 1000 shaharli mamlakat deb yuritilgan.¹

Eramizdan avvalgi VI-IV asr O'rta Osiyo me'morligi haqida Ko'zaliqir, Kallaliqir, Erka qal'a me'morlik komplekslari qoldiqlari taasurot beradi. So'zsiz bu memorlik komplekslari avvalgi davr an'alarini davom ettirish asosida yuzaga kelgan. Ular qalin devor bilan o'rab chiqilgan, darvoza va minoralari mavjud bo'lgan. Ularning markazida sun'iy tepalik bo'lib, unda saroy yoki ibodatxona joylashgan. Saroylar uchun ishlatilgan ustunlar ko'p hollarda kapetallar bilan tugallangan. Eramizdan avvalgi VI-IV asr me'morligi namunalarining ilk namunasi Xorazmdagi Kallaliqir saroy qoldiqlaridir. Saroyning asosiy qismi kvadratga yaqin bo'lib (75 x 80 m) unga sharq va janubdan hovlilarning so'nggisida binoga kirish uchun mo'ljallangan asosiy darvoza bo'lgan. Saroy xonalari esa odatda, ichki ikki hovli atrofida joylashgan. Saroy tomlari tekis qilib yopilgan. Ustunlar uzun to'siqlarga mustahkamlangan va tayanch vazifasini bergan tagkursiga o'rnatilgan bo'lgan va ular toshlardan ishlangan. Ustunlar esa

¹ R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T., 2010. 170-bet.

yog'ochdan ishlangan bo'lib uning kapeteli burgut boshli migrifonlar bilan bezatilgan. Kallaliqir saroy planirovkasi va ko'rinishi, ustunlarning xarakteri bevosita Axmoniyalar davri me'morligini eslatadi.

Eramizdan avvalgi VI–IV asr O'rta Osiyodagi badiiy hayot va turmushda Amudaryoning yuqori oqimidan topilgan "Amudaryo boyligi" (Oks boyligi) muhim o'rin egallaydi. Hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadigan bu yodgorliklar ichida oltindan yasalgan haykallar, turli ko'za, bilak uzuk, muhr, tangalar, oltindan yasalgan aravacha diqqatga sazovordir. Bu buyumlarda uchraydigan tasvirlar birmuncha shartli bo'lsa ham lekin nihoyatda ifodali ishlanganligi, bilan ajralib turadi, detallari aniq va tugalanishi bilan xarakterlanadi. "Jangchi-sak" bo'rtma tasvirida shu fazilatlar mujasamlashgan. Bu yodgorliklarning qayerda ishlanganligi haqida ma'lumot yo'q. Ikkinchi tomondan ularning ishlanishida ham bir xillik yetishmaydi. Bu topilmalarning ayrimlari markaziy Eronda boshqa birlari esa O'rta Osiyoning shimoliy tomon yerdagi xalq va elatlar tomonidan ishlanganligi yoki ularning kuchli ta'siri borligini aytish mumkin. Bu yodgorliklar ichida grek ustalari ishlagan uzuk-muhr hamda haykallarning bu davrda qurilgan binolar xarakterida Axmoniyalar davri me'morligini uslublari bilan birga grek san'ati ta'sirini shu davrda zarb etilgan tangalarda va ularga ishlangan bo'rtma tasvirlarda ham seziladi. Tangalar yuzasiga o'ng tomonga qarab turgan podsholarning tasviri tushurilgan orqa tomonidan Gretsiya afsonaviy qahramonlari tasviri va yozuv mavjud. Bu har ikki tomon tasvirida ellenlarning san'ati an'analari sezilarli. Bu tasvirlar ayniqsa, podsholarning miniature portretlari o'zining realism bilan xarakterlanadi. Bu xususida podsho Dmitriy portretlari alohida o'rinni egallaydi va nodir san'at turiga kiradi. Amaliy san'atda Gretsiya san'atiga taqlid qilish yoki Gretsiya san'atiga namunalaridan foydalanish keng avj oldi. Mahalliy ustalar grek kulolchilik formalaridan o'z ijodlarida keng foydalandilar.

Antik mifologiya va sharq afsonaviy qahramonlari uyg'unligi yangi tiplar yuzaga kela boshladi. Sharq va g'arbning yaqinlashuvi Grek-Baqteriya boshladi. Parfiya davlati va san'atini tushunishda Ashxobod yaqinida arxeologik qazishlar natijasida ochilgan Parfiyaning yirik shaharlaridan hisoblangan Nisa alohida o'rinni egallaydi. U yerdan topilgan amaliy-dekorativ va tasviriy san'at buyumlari o'sha davr badiiy hayotini tushunishda bebaho ashyoviy material hisoblanadi.

Eski va yangi Nisa Parfiya davrida qa'la va shahristondan iborat bitta shaharni tashkil etgan. Bu yerda Parfiya podshosini saroyi g'alla oziq-ovqat ombori hamda zadogonlarning sag'analari bo'lgan. Arxeolog M. Mason rahbarlik ostida 1948 yilda Eski Nisadagi "kvadrat uyda" qazish ishlari olib borilib, topilmalar sharqiy ellinizm yodgorliklarini yorqin namunasi hisoblanadi. Bu yerda ochilgan "kvadrat uy" o'z tuzilishi va bezashda ishlatilgan dekorativ detallari bilan diqqatiga sazovordir. Bu me'morlik yodgorligi kvadrat shaklida bo'lib uning xonalari o'rtadagi katta ochiq hovli atrofida joylashgan. Shu "kvadrat uy" xonalarining biridan marmar haykallarning detallari hamda Afrodit boshi va ikki ayol haykali topilgan. Bu topilmalar o'zining ishlanish uslubi va xarakteri jihatidan antik haykaltaroshlarning asarlarini eslatadi, lekin etnik jihatdan oz bo'lsada mahalliy sharq ayollariga xos ba'zi sifatlarning mavjudligi haykalni mahalliy noma'lum haykaltarosh yaratgan bo'lsa kerak, degan fikrni uyg'otadi.

Nisadan topilgan yodgorlar ichida fil suyagidan shoxga o'xshatib yasalgan idishlar- ritonlar haqiqiy shov-shuvga sabab bo'ldi.

Yangi asrning boshlariga kelib, O'rta Osiyo iqtisodiy siyosiy va madaniy hayotida jiddiy jonlanish boshlandi. Madaniy markazlardan biri Xorazm edi. Tuproq qal'a xarobalaridan topilgan tasviriy va amaliy san'at namunalari shu davrlarda Xorazmda ijtimoiy hayotining birmuncha intevsuv bo'lganligini ko'rsatadi. Xorazm vohasi yodgorliklari betakror hususiyatlar kasb etgan. Masalan Qo'yqirilgan qal'a shunday tarx asosida qurilganki, uning doiraviy tuzilishi mudofa devori son-sanog'i va joylashish qatori osmon jismlari astronomik

kuzatish maqsadlarida xizmat qiladigan aniq matematik hisob-kitob bilan joylashtirilgan darcha orqali quyosh nurining kunlik aylanib otish tuyniklarda tungi yulduzlaning ro'baro bo'lishi,sof ma'noda bu binoning astranomik kuzatuvi maqsadlariga xizmat qiladigan tarzda qurilganligidan dalolatdir.¹

Markaziy Osiyoda uzoq vaqtlar qo'llanib kelingan Xorazm va So'g'd yozuvlari ham qadimiy an'alarini o'zida saqlab qolgan edi. Buni rus olimi S.Tolstov o'z hamkasblari bilan Xorazmdagi Qo'yqirilgan qal'asida arxeologiyaga oid tadqiqotlar uyushtirib topgan ashyolar asosida isbotladi.

Bu yerdan u Xorazm yozuvi namunalarini topdi. Bu yozuvlar qadimgi Xorazm tangalari, muhr, sanat asari va uy-ro'zg'or buyumlarida aks etgan².

Xulosa shuki, Parfiya, Yunon-Baqtriya davlatlari tariximizning muhim bosqichlaridan biridir. Bu davrda o'lkamiz xalqlarining davlatchilik xalq xo'jaligining barcha soxalarida erishgan yutuq va muvaffaqiatlari moddiy va ma'naviy ildizlarimizning buyukligi va qudratidan dalolat beradi.

Vatanimiz tarixining miloddan avvalgi III-I asrlari va milodning IV asrlarigacha bo'lgan hujjatli ma'lumotlari asosan Xitoy manbalariga aloqadordir. Shu bois, O'rta Osiyoda bu davrda qanday davlatlar bo'lganligi, qanday qavm va qabilalar yashaganligi, shahar, daryo, joy nomlari qanday atalganligi Xitoy manbalarida, Xitoy tilida qanday yozilgan bo'lsa, hech qanday o'zgarishsiz manbadagidek atalgan. Chunki bu nomlarning mahalliy tilda o'sha paytda qanday atalganligi ma'lum emas. Jumladan, Xitoy tarixchisi Sima Zyan miloddan avvalgi II asrning so'ngi choragida O'rta Osiyoda bo'lgan-bir Xitoy elchisi va sayyoxining

¹ M.Isoqov. Sivilizatsion jaroyonlar va Xorazm Ma'mun Akademiyasi. Fuqarolik jamiyati// 2006. № 418. 20-21-betlar.

² Sh. Karimov, R, Shamsutdinov. Vatan tarixi. T.; 1997. 109-bet.

soʻzlariga asoslanib bu yerda aholisi yuechjiga oʻxshash Qangʻyuy nomli katta koʻchmanchilar davlati boʻlganligini xabar qiladi.

Qangʻlilarʻ eʼtiqodi mafkurasida zardushtiylik dini etakchi oʻrinni egallagan. Ular quyoshni muqaddas deb bilganlar va unga sigʻinganlar. Tarixiy maʼlumotlarga qaraganda madaniyatning boshqa turlari qatorida musiqa sanʼati ham rivojlanganligi taʼkidlanadi.

Milodiy II-III asrlarga oid xitoy tilida yozilgan tarixiy kitoblarda va musiqa traktatlarida Oʻrta Osiyo xalqining mohir sozandalari, maqomchi va bastakorlari hamda raqqosalari haqida koʻpchilikka maʼlum, boʻlmagan maʼlumotlar mavjud.

Solnomalarda va musiqa traktatlarida Oʻrta Osiyodan olib borilgan juda koʻp musiqa asboblari eslatib oʻtilgan. Ammo bularning aksariyati xitoy tilida nomlanganligi tufayli ularning qaysi biri Oʻrta Osiyodan borganligini aniq aytish qiyin. Bu asboblarga berilgan taʼriflardan va N. Y. Bichurinning tarjimalarida keltirilgan ayrim asbob nomlaridan nay, surnay, childirma, nogʻora, dutor, beshtorli cholgʻu asbobi (gusli) va boshqalar Oʻrta Osiyodan borgan deyish mumkin.

Oʻrta Osiyo va boshqa mamlakatlardan borgan sanʼatkorlardan musiqachi va artistlar guruhlarini tashkil etilgan. Jumladan, Toshkent, Samarqand, Shaxrisabz va Buxorolik sanʼatkorlardan tashkil topgan guruhlar mavjud boʻlgan. 12-24 kishidan iborat boʻlgan guruhlar bora-bora ansamblga aylanadi. Artistlar sahnaga oʻz milliy kiyimlarida chiqqanlar.

Milodiy IV- V asrlarga oid xitoy tilida yozilgan musiqa traktatlarida Buxoro (Ango), Samarqand (Qangʻo) va Qangʻlisijo yoki Qangʻli (Sirdaryoning oʻrta oqimi, Toshkent vohasi) nomli maqomlar mavjud boʻlganligi uqtirib oʻtilgan.

Xusyunu- oʻz davrining eng mashxur raqslaridan boʻlib, Movarounnahrda keng tarqalgan raqslardan biri hisoblangan. Bu oʻyinni asosan qizlar, baʼzi vaqtda

erkaklar ham ijro etganlar. Samarqand va Kitob - Shahrisabz viloyatlarida mashhur bo'lgan bu o'yinni ijro etuvchi qiz-juvonlar ham ko'proq shu viloyatdan chiqqanlar.

Xitoyda milodiy bir minginchi yillarning o'rtalarida O'rta Osiyodan borib qolgan va u yerda shuhrat qozongan raqslardan yana bir Chjechji - Toshkent nomi bilan atalgan bo'lib, buni asosan qiz-juvonlar ijro etganlar. Dastavval bu raqsga bir kishi tushgan, ya'ni yakka o'yin hisoblangan. Milodiy V-VI asrlarda esa besh kishi, keyingi asrlarda esa 24 kishi o'ynagan. Bu raqsga davra tutib, aylanib o'ynalgan.

“Toshkent” raqsi xitoyliklarni o'ziga maftun etgan. O'sha davrlarda yozilgan musiqa traktatlarida bu raqsga juda yuqori baho berilgan. Masalan, Chyan Yan o'zining «Musiqa kitobi» nomli asarida “Xitoyliklar chjechji raqsini ijro etishda xuslar (xorijiyilar — R.Sh. Sh. K.) bilan tenglasha olmaydilar”, deb yozgan edi. O'sha davrdagi xitoy shoirlari “Toshkent” raqsining maftuni bo'lib, unga bag'ishlab 29 ta she'r va qasidalar yozganlar.

Xitoyda yashab, o'sha yerning fuqarosi bo'lib ketgan bir qancha sa'nat ustalari qaysi shahar va viloyatdan kelgan bo'lsalar o'sha joyning nomini o'z ismlarining oldiga qo'shib aytganlar: ularning avlodlariga esa bu nomlar familiya bo'lib qolgan. Masalan, Buxorodan kelganlar - An (Ango- Buxoro), Samarqanddan kelganlar - Kan (Qang'o - Samarqand), Shaxrisabzdan kelganlar- Shi (Shigo-Shaxrisabz, Toshkent ham Shi deb beriladi, ammo uning belgisi boshqacharoq bo'lgan), Mi (Migo-Maymurg`- Samarqand yaqinidagi viloyat), Sao (hozirgi Xo'jand,- Mirzacho'l- va qisman Jizzax viloyatlarida joylashgan yerlar va boshqalar). Xullas, Qang` davlatining qarayib etti asrlik tarixi ota-bobo, avlod-ajdodlarimiz qadim-qadimdan biz haqli suratda fahrlansak arziydigan tarixga, rivojlangan -qadimiy madaniyatga ega bo'lganliklarini yana bir marta isbotlaydi.¹

¹ R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T., 2010.76-77-betlar

1.2 Kushonlar davrida san'at.

Spitamen qo'zg'aloni mag'lubiyatidan so'ng, miloddan avvalgi IV asr oxirlarida xitoy manbalarida yuechjilar deb atalgan qabilalar Sharqiy Turkistondan to Mo'g'iliston chegaralarigacha bo'lgan hududlarga borib o'rtnashganlar. Xitoyning shimolida esa xunn qabilalari yashardi. Yuechjilar xunnlarga janubiy qo'shni bo'lganlar. Ular Sharqiy Turkistonda joylashib olib, xunnlarni o'z ta'sirlariga olish niyatida bo'lganlar. Ularning bu niyati, ayniqsa miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmida to'la namoyon bo'la boshlaydi. Sababi xuddi shu davrda O'rta Osiyoning janubi-sharqiy viloyatlarda Yunon-Baqtriya davlati tarkib topib, yuechjilarni bezovta qilmoqda edi. Yunon-Baqtriyaga qarshi O'rta Osiyo qabilalarining birlashgan mustaqil qo'shinini tuzish zaruriyati kelib chiqqan edi. Yunon-Baqtriya podshosi Evtidem massaget qabilalarining bu harakatlarini barbod etish maqsadida xunnlardan mohirona foydalanadi. Evtidem miloddan avvalgi 206 yilda salavkiylar hukmdori Antiox III bilan shimol ko'chmanchilariga qarshi harbiy ittifoq tuzadi. Bundan xabardor bo'lgan xunn shaxzodasi Mode` yuechjilar qo'lidan garovlikdan qochadi, o'z otasini hokimiyatdan ag'darib tashlab, yuechjilar ustiga lashkar tortib boradi.

Kushonlar davrida shaharsozlik madaniyati gullab-yashnagan. Bu davrga oid dastlabki qadimiy shaharlar Ayritom, Afrosiyob , Dalvarzintepa, Kampirtepa qo'hna shaharlari, Ecki Termiz, Xolchayon hisoblanadi¹.

Kushon davlatining xalqaro elchilik va savdo aloqalari keng rivoj topgan. 99 yilda Kushon davlatining elchisi Rimga borgan. Kushon va Rim saltanatlari o'rtasida yaqin elchilik aloqalari bo'lgan. Ehtimol shu boisdan bo'lsa kerak, Rim podsholari II asr boshlarida Troyan kolonnalariga Rimga kelgan elchilar, savdogarlar, hunarmandlarning tasvirlarini tushirganlar. Ana shu haykal-tasvirlarda

¹ S.Vohidov. A. Qodirov. Sharq mashhur sulolalari. T.: 2013. 30-bet.

O'rta Osiyo vakillarining tasvirlari ham uchraydi. Baqtriya hududida rim tangalari va san'at asarlarining namunalari ko'plab topilgan.

Vima Kadfiz davrida pul islohoti o'tkaziladi. Bu Kushon davlati pulining joriy etilishini ta'minladi. Bu pullar oltin, kumush va misdan ishlangan edi. Oltin tangalar odatda tashqi savdo uchun zarb etilgan. Har bir oltin tanganing og'irligi 8 gramm bo'lgan. Kanishka davrida davlat tili Kushon-Baqtriya tili hisoblangan. Bunga qadar davlat tili yunoncha (Kudzula davrida), so'ngra yunon va hindcha (Vima Kadfiz davrida) bo'lgan. Kanishka davriga kelib tangalar baqtriya yozuvi bilan chiqqan. 100-yilda Kanishka budda dini ulamolarining qurultoyini chaqiradi va ularning fikr-mulohazalarini o'rganib, din sohasida ham islohot o'tkazadi. Ilgari zarb etilgan tangalar faqat hind xudosi Shiva tasviri bilan chiqarilgan bo'lsa, endi tangalardagi tasvirlarda xudolarning soni ko'payadi. Bu hol Kanishkaning Budda dinini davlat dini deb e'lon qilgan bo'lsada, ayni paytda odamlarga har xil dinlarga e'tiqodga ruxsat berilganligini ko'rsatadi.

Kanishka davrida mamlakatda budda diniga atab ibodatxonalar va ular yaqinida monastrlar qurilgan. Budda ibodatxonalarida o'sha zamon san'ati aks ettirilgan. Markaziy Osiyoda buddizm va buddaviy madaniyat 1932 yildan o'ganila boshlandi¹. 1933 yili Termiz yaqinidagi Ayritomdan topilgan ibodatxona tashqi devor peshtoqlariga sarg'ish – oq toshlardan haykallar o'rnatilgan. Haykallarda yaxshi kiyingan va marjonalar taqqan ayollarning do'mbira, rubob, chang, nay kabi cholg'u asboblari chalayotgani tasvirlangan. Peshtoqning bir tomonida qo'lida gul, meva va boshqa narsalardan iborat dahyalar ko'targan odam haykallari o'rnatilgan.

Bino ichida g'ishtdan ishlangan Budda haykalining siniqlari topilgan. Bu yerdagi haykallarning ishlanish uslubi, kiyim-kechagi, musiqa asboblari Hindiston, O'rta Osiyo, Yunoniston madaniyatlari hamda bu xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy

¹ Fan va turmush // № 1-2. 2014. 35-39-betlar.

munosabatlarining rivoji madaniy hayotda juda ravshan aks etganini ko'rsatada. Bu faqat Ayritomdagi haykallar timsolidagina emas, balki Xorazm, Farg'ona, So'g'd, Parfiya yerlarida topilgan turli xil buyumlar, madaniy obidalar, topilmalar timsolida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shahar qurilishiga katta e'tibor berilgan, me'moriy-monumental, tasviriy va amaliy san'at, haykaltaroshlik rivojlanish borasida eng yuqori nuqtaga ko'tarilgan. Ichki va tashqi savdo taraqqiy etgan. Mamlakatda tinchlik va osoyishtalik hukmronligiga erishilganligi tufayli dehqonchilik va uning yurak tomirlari hisoblangan sug'orish inshootlarini barpo etish davlat tasarrufida bo'lgan. Hunarmandchilikning deyarli barcha tarmoqlari keng ko'lamda yuksalgan. Bu davrda etnik madanayati, tili va dini bir xil bo'lgan xalqlarning siyosiy jihatdan birlashishi, ayniqsa muhim ahamiyat kasb etgan. Turli xalqlar madaniyatining chatishishi natijasida bu yerda o'ziga xos yangi madaniyat shakllanib, rivoj topadi va keyingi asrlar madaniyatining taraqqiyotiga ham zamin bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga kushonlar davri - O'rta Osiyo xalqlarining oldingi davrdagi taraqqiyotiga yakun yasadi. Shundan so'ng Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro ta'siri yangi tarixiy bosqichga qadam qo'ydi. Ellin madaniyatining an'analari Kushonlar davrida ijodiy jihatdan qayta shakllandi va yangicha talqin qilina boshlandi.¹

Kushonlar saltanati Kanishkaning vorisi Xuvishkadan keyin asta-sekinlik bilan inqiroz sari yuz tuta boshladi.

Natijada sosoniylar Rim-Kushon do'stligidan xavfsirab, kushonlar bilan aloqani yaxshilash yo'lidan boradilar. Bu maqsandagi ijobiy natijalariga e'rishish yo'lida sosoniylar shohi Xormuzd II (301-309) kushonlar malikasiga uylanadi. Biroq IV asrning o'rtalariga kelib kushonlar bilan sosoniylar o'rtasidagi munosabatlar yana keskinlashdi. Bu davrda Shopur II (309-379) kushonlarga zarba

¹ R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T., 2010. 85-86-betlar.

berib, Shimoliy Baqtriya yerlarini bosib oladi. Kushonlar bu zarbaga ham bardosh berdilar. Kushonlar sulolasining so`ngi vakillari kidariylardir. Ularni taxtga o`tkazish tantanalari IV asrning oxirida Balxda bo`ldi. Kidariylar tarix sahnasida uzoq yashamadilar. Maydonga yangi kuchlar chiqdi. Bu kuchlar o`z vaqtida Kushonlar saltanatining tarix sahnasidan o`chishiga olib keldi.

Kushon podsholigi va kushonlar davri O`zbekiston, Tojikiston, Afg'oniston Pokiston va Hindiston tarixida muhim o`rin tutadi.

Shunday qilib Kushonlar saltanati tarix maydonida o`z o`rnini boshqa, o`zidan kuchliroq siyosiy yushmalarga bo'shatib berdi. Kushonlar o`zlarining tahminan 400 yillik hukmronlik davrida insoniyat jamiyati taraqqiyotida o`chmas iz qoldirdilar. Bu davrda yaratilgan noyob san'at asarlari, madaniyat yodgorliklari uning o`tmishidagi qudratidan dalolatdir¹.

Kushon davri O`rta Osiyo xalqlari tarixida alohida o`rin egallaydi. Bugungi kunda kushonlar bilan bog`liq mavjud adabiyotlarning tahlili, olimlarning Kushon saltanati tarixi va ayniqsa madaniyati bilan bog`liq qarashlarni rivojlanib borish yo`llarini kuzatish imkonini bermoqda. Ular Kushon davri O`rta Osiyo xalqlari orasida iqtisodiy rivojlanish yuz bergan, savdo-sotiq va xalqaro munosabatlarda o`zaro madaniy yaqinlik o`xshashlik borligini qayd qilish bilan birga har bir o`lkaning o`ziga xos madaniy an'analarari mavjudligini ko`rsatib berdilar. Kushon davri Baqtriya madaniyati shakllanish va rivojlanish yo`llarini, uning asosiy omillarini aniqlab, jahon madaniyatining rivojlanishida Kushon davri Baqtriya madaniyatining o`rnini belgilab berdilar. Bu davlatga O`rta Osiyo hukmdori Kudzula Kadfiz boshchilik qildi. Uning o`g`li Kadfiz 2 esa bu davlat maydonini Hindiston yerlariga qadar yetkazadi. Kanishka podsholik qilgan yillarda esa Kushon davlati o`zining gullagan davrini boshidan kechirdi

¹ R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T., 2010. 81-87-betlar.

Kushoniylar davrida O'rta Osiyoda buddizm dini keng tarqaldi. Kushon hukumdorligi o'z saltanatlarini mustahkamlash uchun bu dindan foydalandilar. Uni omma orasiga singdirishga harakat qildilar. Hukumdorlarni bu intilishlari shu davr san'at va madaniyatida ham ifodasini topdi. Buddizm bilan bog'liq bo'lgan ibodatxonalar vujudga keldi, haykallar yaratildi, devoriy suratlar ishlandi.

Kushoniylar davrida ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar bizgacha yetib kelgan tangalarda ham nomoyon bo'ladi. Bu tanga yuzalariga podsholar portreti zarblangan, orqa tomonida xudolar tasviri tushirilgan yozuvlar esa kushon-baqtriya tilida bo'lib yozish uchun kushon harflari ishlatilgan.

Kushon davri san'atini bida Xolchayonda saqlanib qolgan bino qoldiqlari hamda tasviriy va amaliy san'at namunalari muhim o'inni egallaydi.

Bu yerda bino sharqqa qarab qurilgan bo'lib, uning old tomonida 6 ustunli ayvon bo'lgan. U yerdan asosiy xona-katta zalga va ikki ustunli xonga kirilgan. Bino xom g'ishdan qurilgan¹. Ustunlar yog'ochdan ishlangan bo'lib, ular tosh taglikka o'rnatilgan. Binoning tomi tekis yopilgan, xonalar esa devoriy surat va haykallar bilan bezatilgan. Devoriy suratlardan ayrim tasodifiy bo'lakchalar yomon holda bizgacha yetib kelgan. Bular ichida yigit boshi surati, uzum novdalari birmuncha bilinarli.

Xolchayondagi binoni bezashda haykallar keng qo'llanilgan. Bu haykallar xonalar devorining yuqori qismiga barel'ef va garel'ef uslubida bajarilgan. Unda podsho va uning yaqinlarini, shuningdek otliqlar tasviri ishlangan. Bu haykallarda Grek-Baqtriya san'atiga xos xususiyat-har bir tasvirlanuvchining o'ziga xos individual xislatlarini ko'rsatishga, kiyimlari, qurollarini aniq tasvirlashga intilish

¹ O'rta Osiyoning madaniy hayoti. T., 2002. 46-bet.

sezilarlidir. Noma'lum haykaltarosh tasvirlovchining soch tarashi, kiyim-boshi xarakterining ham aniq bo'lishiga, psixologik holatini ifodalashga intiladi.¹

Ayrimtomdan topilgan toshdan ishlangan rel'eflar va so'ngi Kushon davlati me'morligining xarobalari bu yerda buddizm keng yoyila boshlaganligini ko'rsatadi. Ayritomdan topilgan toshdan ishlangan rel'eflar ibodatxonaga kiraverish tomonga karniz tarzida ishlangan bo'lgan. Bu karnizlarda akanf barglari orasida yarim beligacha tasvirlangan qo'shnay, nog'ora (baraban), lyutna (g'ijjakka o'xshash musiqaa asbobi) va arfa (chiltor) chalayotgan sozandalar tasvirlangan (ular 14 ta).

Kushonlar davrida buddizm dini bilan bog'liq bo'lgan me'morlik kompozitsiyalari yuzaga keldi. Zulmalaqal'a deb nom olgan eski Termiz yaqinidagi me'morlik qoldig'i shu o'rinda muhimdir². To'rtburchak shaklidagi taglikka tepa tomoni yarimsfera tarzda tugallangan silindirsimon stupa qurilgan. Minoraning qozon shaklidagi asosiy ustun qismi chegarasi karniz bilan ajratilgan. Minora uzunligi 14,5 metr, balandligi 13 metrni tashkil etadi. Minoraning tagi oq, tepadagi yarim aylana shaklidagi qismi qizil tosh plitalari bilan, asosiy qismi g'isht bilan pardoqlangan bo'lishi ehtimoli bor³.

Qoratepada olib borilgan arxeologik ishlar buddizm bilan bog'liq me'morlik kompleksining ochilishini taminladi. Bu yerda arxeologik ishlar davom etmoqda, lekin ochilgan g'or, ibodaxonalarning bezatilishi u yerda mavjud bo'lgan haykal va devoriy suratlar diqqatga sazovordir. O'zbek-yapon tarixchilar, arxeologik olimlar tomonidan o'sha ibodatxonalar o'rganilmoqda.

¹ O'rta Osiyoning madaniy hayoti. T., 2002. 50-52- betlar.

² Moziydan Sado //. 2003. №34 (19-20)

³ Fan va turmush // № 1-2. 2014. 35-39-betlar.

Amaliy san'at namunalari ham diqqatga loyiqdir. Yangi asr boshlarida yaratilgan kulolchilik, zargarlik va metallardan buyumlar yasash san'ati nafisligi bilan o'ziga tortadi. Ayniqsa, metal buyumlar yasash va ularning yuzasini bo'rtma tasvirlar bilan bezash san'atida O'rta Osiyolik ustalar katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Arxeolog va san'atshunoslarining mehnati tufayli O'rta Osiyo xalqlari o'tmishining boy va serqirra ekanligini isbotlay berildi. O'rganish esa hali tugagani yo'q. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, olib borilgan ilmiy tatqiqotlar tufayli O'rta Osiyo san'atining qadimiy davriga oid yangi-yangi ma'lumotlar olind¹i.

Janubiy Koreyaning Seul shahrida "Sharq va G'arb sivilizatsiyalari chorrahasi O'zbekistonning qadimiy madaniyati" ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz o'tmish tarixini aks ettiruvchi ko'rgazmalar namoyish etildi².

Jarqo'ton, Sopollitepa, Dalvarzintepa, Qiziltepa, Bandixon, Xalchayon, Kampirtepa, Qadimgi Termiz qal'asi, Qoratepa, Fayoztepa, Chingiztepa, Ayritom, Zurmala, Qirqqiz qal'asi va boshqa arxeologik yodgorliklarning o'rganilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 27 dekabrda 545-PF sonli qarori asosida 2002 yil 2 aprelida Termiz shahrining 2500 yilligi nishonlandi.

¹ Moziydan Sado. 2003. №34 (19-20)

² Xalq so'zi. // 2010 yil 16 yanvar. №11 (49.26)

II bob. O'rta asrlarda O'rta Osiyoda san'at taraqqiyoti.

II.1. Ilk feodalizm davrida O'rta Osiyoda san'at.

Davlatimiz Rahbarining “O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida ta'kidlab o'tilganidek: “O'rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta'lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san'at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste'dodli avlodlar to'loqining paydo bo'lishi va voyaga yetishi - bularning barchasi birinchi navbatda iqtisodiyot, qishloq va shahar xo'jaligining ancha jadal o'sishi, hunarmandlik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo'llar qurilishi, yangi karvon yo'llarining ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Men bu fikrga alohida urg'u berib aytmoqchiman. Chunki, tinchlik va barqarorlik bo'lmasa, ilm-fan sohasida hech qanday o'sish, taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Qayerda tinchlik va barqarorlik bo'lsagina ilm-fan markazlari, akademiyalar, oliy o'quv yurtlari paydo bo'ladi. Eng asosiysi, ta'lim-tarbiya ravnaq topib, unga qiziqish, e'tibor kuchayadi. Tinchlik-barqarorlik bo'lgan joydagina odamlar o'qib-o'rganishni, har tomonlama rivojlanishni istaydi.

Sharq olamida, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida rivojlangan madaniyatning mavjud bo'lgani haqida qadimgi baqtriya, so'g'd, o'rxun, xorazm yozuvlarida bitilgan yodgorliklar, devoriy tasviriy san'at asarlari va haykalchalar, arxitektura namunalari dalolat beradi.”¹

¹ “O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati” xalqaro konferensiya materiallari. 15-16 may, Samarqand. T: O'zbekiston- 2014.

VI asrning o`rtalariga kelib Oltoy, Ettisuv va O`rta Osiyodagi turli qabilalar va xalqlar birlashib katta Turk xoqonligi davlatini tashkil qildilar.

VI asrning oxiri VII asrning boshlarida kuchli Turk xoqonligi davlati bo`lganligini yozma manbalar xabar qiladi. Xitoy tarixchisi «qadimgi zamonlarda shimoldagi ko`chmanchilar hech maxal bunday kuchli bo`lmagan edilar», deb yozadi. «Qarayib barcha xonlar Xitoy malikalariga uylandilar, xitoy xonadoni esa har yili yuz bo`lakdan ipak mato armug'on qilib turdi».¹

Ko`chmanchi Turkiy qabilarning tez-tez hujumi Kushon imperiyasining inqirozga yuz tutishiga olib keldi. Eftalitlar, keyinroq Turk xoqonligining O`rta Osiyo yerlarini o`z hukumronligiga bo`ysundirishi davrida yangi formatsiyaga o`tish yana tezlashdi. Bu hoqonlik Oltoy, Ettisuv, O`rta Osiyoda yashovchi juda ko`p xalq va elatlarni o`z qo`l ostiga birlashtirgan edi. Turk xoqonligi davrida mayda mustaqil podsholik (mulklar) paydo bo`ldi. Eftalitlar va Turk hoqonligi davrida O`rta Osiyo yerlarida bir qator mustaqil podsholik shahar – davlatlari mavjud bo`lib, bu podsholiklar Eftalit yoki hoqonlikka qaram bo`lib qolmadi. Balki unga nsoliq to`lash va ularning hukumdor ekanligini tan olish bilan tiklandi. Turk hoqonligi davrida Xorazm, Toxariston, So`g`d (So`g`diyona) uning asosiy yerlari bo`lgan. Ayniqsa, sharq va g`arb karvon yo`llari ustida joylashgan So`g`d madaniy va iqtisodiy jihatdan yuksak bo`lgan. U Eron, Vizantiya, Hindiston, Uzoq Sharq mamlakatlari, shuningdek, Xorazm orqali Sharqiy Yevropa bilan ham savdo-sotiq ishlarini olib borgan.

V-VII asrlarda turkiy xalqlar o`rtasida otashparastlik buddizm va xristian dini ham rivojlana bordi.

¹ R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T., 2010.116-bet.

Turk xoqonlari davriga oid manbalar, tarixiy obidalar nisbatan kam saqlangan. Ammo Xitoy manbalarida ta'kidlanishicha, VI-VII asrlarda Turk xoqonligida tasviriyy san'at, haykaltaroshlik ancha keng taraqqiy etgan. Ustrshona, Xolchayon, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Panjikent harobalaridan topilgan naqshlar va suratlar bu fikrimizni yorqin ifoda etadi. Buxoro hokimining ko'hna Varahshadagi saroy binolaridagi suratlar diqqatni jalb etadi. Oq fil mingan, nayza, qilich va arqonlar bilan qurollangan askarlar hayvonlar va qanotli ajdaholar bilan jang qilmoqdalar. Fillar, beligacha yalangoch askarlar oltin va qimmatbaho toshlardan yasalgan har xil bezaklar bilan bezatilgan. Boshqa bir katta xonada esa podsho o'z saroy ahillarini tantanali suratda qabul qilayotganligi manzarasi aks ettirilgan. Podsho qanotli, ikki tuyaning surati solingan taxtda o'tiradi. Taxtning ikki tomonida esa juda qimmatbaho kiyimlar kiygan, qilich va xanjar taqqan, qo'llarida qadaxlar ko'targan erkaklar, taxt yonida ustida olov yonib turgan idishning surati solingan. Bu davrda kulolchilik san'ati ham rivoj topgan. Turli idishlar, uy-ro'zg'or anjomlari, hayvon, meva-cheva, odamlar tasviri bilan bezatilgan va sirtiga sirli shaffof mineral ishlatilganligi uchun ular yaltirab turgan. Turk xoqonligi davrida yaratilgan moddiy madaniyat yodg'orliklaridan biri loydan yasalgan har xil tasvirdagi haykalchalardir. Bu haykalchalar qo'lida kosa yoki qurol-yarog' ushlab turgan kishi shaklida bo'lib, odatda ular qo'rg'oncha yoki marxumlar qabrlariga qo'yilgan.

Vizantiyalik tarixchi Menondr turk xoqoni Istami Dizovul chodirlaridan oltindan ishlangan taxt, yotoq, ko'za, kuvachalar, kumush idishlar, xayvonlar shaklida ishlangan buyumlar topilganligini aytib, bu san'at asarlari Vizantiyada ishlangan shu xildagi buyumlardan qolishmaydigan va kishini hayratga soladigan darajada go'zal bo'lganligini yozadi.

Shunday qilib, IV asrning oxiri va V asrning boshlaridan e'tiboran mamlakatimiz hududida feodal tuzumning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshladi. Asta-sekinlik bilan feodal taraqqiyoti tomon rivojlanib borgan sari, mamlakatimiz

xalqlari jahon taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'ldilar, jahon davlatchiligi, sivilizatsiyasi va madaniyatiga o'z hissalarini qo'shdilar. Ilk feodalizm davrining taraqqiyot jarayonni tezlashuvida Turk xoqonligi nomi bilan tarix silsilasidan munosib o'rin olgan buyuk davlatning katta hissasi borligidan har birimiz xaqli suratda fahrlanamiz.¹

So'g'diyona-Qashqadaryo va Zarafshon daryolari havzalaridagi tarixiy viloyat bo'lib, (Hozirgi O'zbekiston, Tojikiston Respublikasi territoriyasi) dastlab Avestoda. Doro qabri yozuvlari mixxatlarda eslatilgan. So'g'diylar O'rta Osiyo va Qozog'istonning qadimgi Sharqiy-Eron til gruppasiga mansub xalq So'g'diylarning asosi saklarning ko'chmanchi va o'troq qabilalardan iborat bo'lgan. Sopol taxtachaga o'yib yozilgan bir katibada Doro I (miloddan avvalgi 522-486 y) Suzada bunyod etilgan saroyning qurilishda ishlatiladigan materiallarning qimmatbaho toshlar lazurit va serdorlik (qizil yoki qizg'ish rangli tosh) So'g'diyonadan olib kelinganligi qayd etilgan. Eronda mashur Doro1 ning maqbarasi ustida tobe bo'lgan barcha xalqlarning vakillari tasvirlangan qavartma suratlar orasida boshiga kashtali do'ppi kiygan so'g'd ham tasvirlangan. Tarixiy manbalarda So'g'diylar millodan avvalgi VI-VII asrlarda ham sug'orma dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelganliklari haqida ma'lumot bor. Shunday qilib So'g'diylar taqvimini ham ana shu davrlarda yaratilgan. Millodan avvalgi 329-327 yillarda Aleksandr Makedoniskiy So'g'diyonani zabt qilgan. Mahalliy xalq Spitamin boshchiligidagi yunon makedonlariga qarshi mardonovor jang qilgan va keyin uning saltanati mayda-mayda qismlarga bo'linib ketdi. So'g'diyona Salavkiylar davlati tarkibiga millodan avvalgi 250 yilda esa yunon-Baqtriya davlatiga kirar edi. Lekin bu davlatning ichki ahvoli u qadar mustahkam bo'lmay maxalliy xalq bilan yunon makedon xokimlari o'rtasida ziddiyat tobora chuqurlashib, chet el bosqinchilariga

¹ R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T., 2010. 125-126-betlar.

qarshi qo'zg'olonlar So'g'diyonada ayniqsa keskin tus oladi. Natijada millodan avvalgi 2asr oxirlari va asr boshlarida So'g'diyona mustaqillikni qulga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Yunon-Baqtriya davlati o'rnida Kushonlar (toxarlar) davlati tashkil topdi va So'g'diyona millodiy I asrdan istilo qilindi va kushon davlati tarkibiga kiradi. Shunday qilib Xitoy manbalarida ham So'g'd aholisi, urf-odatlar, tarixi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Qadimgi Xitoy manbalarda So'g'diylar bolalarni 5 yoshdan o'qish-yozish va hisobga o'rgatganliklari aytib o'tiladi. Bolalar balog'atga yetgach, savdogarlikka o'rgatilgan. Ular zardushtiylik dinining etiqot qilganlar. So'g'd yozuvi millodan avvalgi so'ngi ming yillikning oxirlarida ormiy belgi alifbosidan ajralib chiqqan. So'g'd yozuvi 25 ta belgidan iborat bo'lgan. Akademik Bo'rivoy Ahmedov So'g'd yozma manbalari haqida qizqarli ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

Mashhur so'g'd yozuvi III asrga oid bo'lib Dunxuan (sharqiy Turkiston)dan topilgan. Samarqandda yashovchi ona bilan so'g'd mustamlakasi bo'lgan Durxuanda yashagan uning qizi o'rtasidagi yozishmalar O'rta Osiyo xalqlarining oilaviy hayoti yuqori madaniy saviyasi, ayollarini savodxonligi va mustaqilligi haqida tassavur beradi. So'g'diyona hududida kushon qatlamlari Samarqand yaqinidagi Tolibarzu va Kitob tumanida so'ngra Qarshi stansiyasida (Zohaku Moron qal'asi), Koson atrofida (Yerqo'rg'on xarobalari) topilgan.

Milodgacha I milodning I asrlarida yashab o'tgan Rim tarixchisi Pompey Trogning "Filipp tarixi" nomli 44 kitobdan iborat asarida Iskandar Zulqarnayn davrida Baqtriya va So'g'dda qurilgan shahar va yirik imoratlar turli mavzularga oid ma'lumotlar mavjud.

Ptolomiy Klavdiy (taxminan 90-160-y) mashhur qomusiy olim Aleksandriyada yashab ijod qilgan. Uning "Amagest", "Optika", "Germanlar haqida" tushuncha", "Geografiya" asarida ko'plab hududlar qatoriga So'g'diyonaning geografik holati, mashhur shaharlari, ular bilan tutash o'lkalar

va ularning aholisi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. So'g'diyona IV asr oxiri V asrda Efalitlar davlatiga, VI-VII asrlarda esa Turk xoqonligiga bo'ysungan, VII asr oxiri VIII asr boshlarida So'g'diyonani arablar istilo qilgan.

Qadimgi va ilk o'rta asrlarda So'g'diyona sharqning iqtisodiy va madaniy hayotida katta rol o'ynadi. So'g'diyona savdogarlari Mo'g'liston va Xitoydan tortib Marvgacha cho'zilgan hududda savdo qilganlar.

VII asr o'rtalarida kelib Osiyoda yirik ko'chmanchilar davlati –Turk xoqonligi tarkib topdi va Marvgacha cho'zilgan hududda savdo qilganlar hoqonlik markazi Oltoy edi. Ular uzoq urinishlardan so'ng O'rta Osiyoni bo'ysuntirdi. So'g'diyona o'sha davrda Panjekentdan Karmanagacha bo'lgan uncha katta bo'lmagan hududni egallagan. Ichki boshqaruvda ba'zi erkinliklar saqlanib qolgan bo'lsada. So'g'diyona hoqonga o'lpon to'lab turgan. So'g'diyonada kon ishlari olib borilib oltin, mis, kumush, temir, simob, qazib olingan.

So'g'diyonada olib borilgan arxeologik qazishlar natijasida Afrosiyob harobasidan V asrga oid So'g'diyona tangalari, ko'za siniqlari ibodatxonalaridan spool haykallarda Samarqand savdogarlarining O'rta Osiyo, va uning tashqarida ham (masalan Buyuk Xitoy devori yaqinidagi Dunxuanda) kaloniyalari mavjud bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Lekin knyazliklar orasida kuchli birlik yo'q edi. Bu albatta uning keyinroq arablarga qaram bo'lib qolganligiga sabab bo'lganligini ko'rsatadi. Bu davrda ham san'at ijtimoiy hayotda muhim o'rinni egallagan va davr kishilarning estetik-g'oyaviy qarashlarini ham namoyon etgan. Shu davrda qurilgan hashamatli qasr va ibodatxonalar, ularning devorlariga ishlangan suratlar davr mafkurasining ifoda etgan mamlakat hayotini ko'rinarli obrazlarda aks ettirgan Xitoylik tarixchi Samarqand va Buhoro o'rtasida qurilgan hashamatli bino hayratlanarlighi, binoning shimoliy devorida bo'yoqlar bilan Xitoy impertorlarining tasviri, sharqiy devorda turk xonlari va Hindiston hukmdorlari,

g'arbiy devorda esa Eron va Rim podsholari tasviri tushirilganligi haqida yozib qoldirilgan.

Topilgan ashyolar shuni ko'rsatadiki, bobokalonlarimiz hunarmandchilikning kulolchilik sohasida antik olamda tengi yo'q ustalar bo'lganlar. Baqtriya, Marg'iyona va Sug'diyona kulol ustalari yasagan sopol idishlar o'ziga xos san'at asarlari darajasiga ko'tarilgan. Bundan tashqari shohhona saroylar, ibodatxonalar, mudofaa inshootlari va uy-joy qurishda o'lkamiz xalqlari antik davr olamida tengsizlik darajasiga ko'tarilganlar.

O'lkamizda olib borilgan arxeologiyaga oid qazilma ishlari So'g'diyonada yashagan aholining yuksak dehqonchilik va chorvachilik madaniyatiga ega bo'lganliklarini ko'rsatadi. Bu yerda hunarmandchilik ham rivoj topgan. Yaqin-yaqinlarga qadar so'g'd kulolchiligini VI-IV asrlardagi eron Ahamoniylari kulolchilik san'ati bilan bog'lab kelinar edi va uni «Ahamoniylar sopoli» deb atardilar. Keingi 25-30 yil davomida Samarqandda Afrosiyob-1, Qashqadaryoda Yerqo'rqon-1, Buxoroda Buxoro-1 va boshqa yerlarda olib borilgan qazilma topilmalari bu g'oyaning noto'g'ri ekanligini, So'g'diyonada kulolchilik va sopolchilik hali bu yerga Ahamoniylar kelmasdan ilgari ham miloddan avvalgi IX-VIII asrlardayoq rivojlanganligini isbotladi.¹

O'rta Osiyoda feodalizmga o'tish davri uning san'ati xarakteri va mazmunida ham o'z ifodasini topdi. Bu hol dastlab davr uchun xarakterli katta oilalar yashaydigan qo'rg'on-qasrlar qurilishida seziladi. Bunday qo'rg'on-qasrlar O'rta Osiyoning ko'pgina yerlarida saqlanib qolgan. Shaharlardan tashqaridagi shunday ilk qo'zg'olonlardan biri Xorazmdagi "Yakkaparson" qo'rg'on-qasri bo'lib, uning markazida loydan qurilgan sun'iy tepalikda turar joy binosi joylashgan. Qasr atrofi esa uch qator devor bilan o'rab chiqilgan.²

¹ R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T., 2010.58-75-betlar.

² B.Ahmedov. O'zbekiston tarixi manbalari. T.,2001. 78-bet.

Feodal munosabatlarning rivojlanib borishi bilan eski shahar tiplari o'zgarib shaharning paydo bo'la boshladi. Agar quldorlik davridagi shaharlar to'g'ri va ko'p hollarda kvartaallarining to'g'ri joylanishi bilan xarakterlangan bo'lsa, endilikda ilk feodal shaharlari ostida mustahkam devorlar bilan o'ralib uning ichki qismi betartib qurilgan o'ylar va tor, egri-bugri ko'chalar bilan to'ldirilgan boylarning 2-3 qavatli binolari esa, feodal shahari qurilishiga o'ziga xos usul bergan. Podsholarning saroy va shahardan tashqaridagi rezidensiyalari hashamatli va go'zal bo'lishga etibor berilgan. Ko'p hollarda sun'iy tepalik ustida qurilgan ustun, yarim ustun, ark hamda turli dekorativ me'morchilik hajmlaridan podsho saroyining xushmanzara va mahoratli bo'lishidan foydalanilgan. Bu binolar ham xom g'isht va paxsadan ishlangan bo'lib, devorlari ganch bilan pardozlangan, xona devorlari devoriy surat va naqshlar bilan bezatilgan. Ganch, yog'och o'ymakorligi va bo'rtma tasvirlari binoga alohida fayz kiritgan. Bizgacha vayrona holida yetib kelgan bu saroylar hozir ham o'zining ulug'vorligini bilan kishini hayajonga soladi.

Ilk feodalizm asrida O'rta Osiyoda yagona din bo'lmaganligi bu davr qurilishlarda ko'mish marosimi bilan bog'liq buyumlarda ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, Farg'ona vodiysi (Quva)dan topilgan ibodatxona xarobasi ilk feodalizmda ham bu yerlarda buddizm mavjud bo'lganligini ko'rsatdi.

Bu yerdagi ibodatxona ikki xonadan iborat bo'lib, old xonasi ayvon tipida va unga kiraverishda haykallar qo'yilgan.

Xorazmdan topilgan ko'mush marosimi bilan bog'liq bo'lgan assuariy yoki astadan deb nomlangan to'rtburchak quticha shaklidagi loydan yasalgan o'ziga xos tobutchalar bu yerlarda zoroaktrizm mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Bu astodolarga jasad suyaklari solinib, maxsus qabr tokchalariga qo'yilgan. Astadonlar So'g'd, Shoshda ham topilgan.

Otashparaslik dini bilan bog'liq bo'lgan ibodatxonalar odatda, tepalikda qurilib, old tomoni esa quyosh chiqish tomonga qaratilgan va qiymati yuksakligi bilan jahon madaniy taraqqiyotining muhim xodisasi sifatida diqqatga sazovordir.

Ilk feodalizm davrida haykaltaroshlik san'ati ham keng qo'llanilgan. Dumaloq va burtma tasvir shaklida me'morlik komplekslari keng ishlatilgan. Bu haykallarda diniy va afsonaviy obrazlar bilan bir qatorda real hayotni aks ettiruvchi obrazlar ham uchraydi. Haykallar maxsus tayyorlangan loydan, ganch, yog'och, albastr va toshdan ishlangan. Bu xususda, Varahshadan topilgan rel'eflar, So'g'd mayda plastikasi, Panjikentdan topilgan yodgorliklar diqqatga sazovor Varahshadagi saroyini bezashda ganch o'ymakorligi keng qo'llanilgan.

Bolaliktepa ibodatxonasidagi binoning devorlariga ishlangan sur'atlar rang-barang bo'lib, qo'llarida qadaqlar ushlab, o'tirgan erkak va xotinlarning qo'l-oyoqlari rang-barangli bo'yoqlarda jonli bir sur'atda hayratomuz o'z ifodasini topgan. Bu daliliy ashyolar qadimgi ajdodlarimizning buyuk aql taffakur va ijod egallari bo'lganligini ko'rsatadi.¹

Qachonlardir So'g'dning chekka amirligidan birining markazi bo'lgan qadimiy Panjikent yodgorliklari arxeologlar tomondan birmuncha keng va atroflicha o'rganilgan. Bu shaharchaning maydoni katta bo'lgan, atrofi devor bilan o'ralgan bo'gan. Shaharda ibodatxonalar zodagonlarning qasrlari, omborxona va turar-joylar bo'lgan shahar maydoning g'arbiy tomonnidagi ikkita ibodatxona esa sun'iy tepalik ustida bo'lib old tomoni sharqqa qaratib qurilgan ibodatxonaning old qismi kattagina olti ustunli ayvon bilan boshlanib undan so'ng to'rt ustunli ayvon tomoni ochiq to'rtburchak zal bo'lgan. Undan esa ichkariga "eng muqaddas" xonaga kirilgan. Ayvonga zina orqali yoki maxsus tepaga ko'tarilib boruvchi yo'lak orqali chiqqan. Bu ibodatxonaning qurilish uslubi va plani Kushon davri me'morligiga juda yaqin. Tomi tekis yopilgan. Yog'ochdan ishlangan ustunlar esa

¹ Sh. Karimov . A.Shamsiddinov. Vatan tarixi. T.,1997.118-bet.

toshdan yasalgan taglikka o'rnatilgan. "Muqaddas xonaga" kiriladigan tomondagi devor ham xarakterli. Bu devorlarni yon tomonlarida taxmonchalar bo'lib, ularga haykallar qo'yilgan. Devor esa devoriy suratlar bilan bezatilgan.¹

Surat mavzusi momot tutishiga bag'ishlangan. Unda yevropoid, mongoloid tipidagi odamlarning aza tutishi ularning hatti-harakatlari orqali ochib berilgan. Ayvon devorlari bo'rtma tasvir-rel'ef bilan qoplangan bo'lib, afsonaviy maxluq, odam va suv hayvonlari tasviri ishlangan. Ibodatxonaning to'sin va ustunlari ham san'atkor diqqatidan chetda qolmagan. Ular o'yma va rang naqqoshligi bilan pardozlangan. Panjikentdagi zodogonlarning uylari, ayniqsa mehmonhona va uyda olib boradigan yo'laklarchalar juda bezakdor bo'lgan. Bu devoriy suratlar temasi rang-barang bo'lib, afsonaviy voqealar, diniy marosimlar, So'g'd feodallarining ayshu ishratlarini aks ettiradi. Afsonaviy Rustam jasurligiga bag'ishlangan suratlar ham uchraydi.

Panjikent devoriy suratlari turli davrlarda ishlagan. Ularning ishlanish uslubi ham turlicha bo'lib, o'sha davrda qator badiiy yo'nalishlar bo'lgaligidan dalolat beradi. Buxoro vohasida topilgan va baxsha hukmdori saroyi qoldiqlari va devoriy suratlari diqqatga sazovordir. Bu saroydagi suratlar ishlanish uslubi jihatidan Panjikent devoriy suratlariga yaqin va deyarli u bilan bir vaqtda taxminan, VII - VIII asrlarda ishlangan, Varaxsha devoriy suratlari ichida ov manzarasi yaxshi saqlangan. Bu suratda fil ustida ketayotgan odamlarga sherning hujumi tasvirlangan bo'lib bu kompozitsiya o'zining dinamikasi va ajoyib rang gammasi bilan ijodkorning yuksak mahorat egasi ekanligini isbotlaydi. Rassom ishlangan har bir obrazning tugal shakliga, har bir obrazning tugal shakliga ega bo'lishiga, har bir detalni ham iloji boricha aniq va tugal darajada ko'rsatishga intilgan. Kompozitsiyadagi ana shu tomon Panjikent devoriy surati xarakterini eslatadi. Varaxsha saroyini bezatishda ganch o'ymakorligini yana bir bor isbotlaydi.

¹ B.Ahmedov. O'zbekiston tarixi manbalari. T., 2001. 102- bet.

O'ymakor naqsh o'yib ishlangan. O'simliklar va geometrik shakllardan tashqari, odam va hayvonlar bo'rtma tasviri bu o'ymakorlik mazmunini chuqurlashtiradi.

1965 yili Samarqand yaqinidan afsonaviy podsho Afrosiyob saroyi qoldiqlarining topilishi katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Bu topilma yana bir bor O'rta Osiyo ilk feodalizm asridayoq yuksak madaniyat mavjud bo'lganligini jahonga namoyish etdi. Bu saroy qoldiqlarini devorlariga ishlangan tematik surat va naqsh kompozitsiyalari yuksak mahorat bilan ishlanganligi bilan kishini hayratlantiradi. Ayniqsa elchilar kelishiga bag'ishlangan kompozitsiya ishlanishi diqqatga sazovordir. Bu kompozitsiya ishlanishi detallarga e'tibor berilishi jihatidan. Panjikent va Varaxsha suratlariga yaqin bo'lsa ham, lekin badiiylik va mahorat jihatidan ulardan ustundir. Afrosiyob devoriy suratlarining ahamiyati yana shundaki suratlar bilan birga So'g'd harflarida yozilgan bir qator so'zlar ham uchraydi.

Xitoy manbalarida yozilishicha, VI-VII asrlarda Turk xoqonligida tasviriy san'at haykaltaroshlik ancha tarqqiy etgan.¹

O'rta Osiyo ilk feodalizm asrida monumental-dekorativ rang tasviri to'g'risida fikr yurutganda, Vaxsh vohasidan topilgan (O'zbekiston va Tojikistonning janubi), "Ajina tepa" devoriy suratlarini, Termiz yaqinidan topilgan "Yumaloq tepa" unga yaqin joylashgan "Bolalik tepa" devoriy suratlarini eslamay bo'lmaydi. Bu suratlar xarakterining shakllanishida shu davr monumental-dekorativ rang tasviriga xos uslub mavjud bo'ib, bular birlikda O'rta Osiyo ilk feodalizm asrida bu san'atning yuksak bo'lganligi bu san'atda turli uslub va yo'nalishlar mavjud bo'lganligi yana bir namoyon qiladi. Ilk feodalizm asrida amaliy-dekorativ san'at ham jiddiy ravnaq topdi. Bizgacha etib kelgan uy anjomlari, ov va jang qurollari, shuningdek, turli shoyi va oddiy chit matolar

¹ R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T., 2010. 125-bet.

badiiy bezatilganlini ko'rsatadi. Amaliy buyumlar yuzasiga bo'yoqda tasvirlar ishlangan, kumushdan yasalgan buyum va qurolar esa burtma tasvirlar bilan bezatilgan. Bu tasvirlarda devoriy suratlarda aks ettirilgan obraz va voqealar o'z ifodasini topgan. Podsholar tasviri bazm, ov manzaralari bu buyumlar yuzasiga go'zallik baxsh etgan.

Bu asrlarda mayda haykaltaroshlik ham keng tarqalgan. Loydan yasalib, keyin pishirilgan turli haykalchalar aynisa So'g'dan ko'lab topilgan. Ular hozirgi kunda respublika muzeylarida saqlanmoqda.

Arablar istilosi arafasida O'zbekiston mayda-mayda davlatlardan iborat edi. Sharq va Xitoy tillarida yozilgan manbalardan ma'lumotlarga qaraganda VIII asr boshlarida O'rta Osiyo va O'zbekiston hududi 15 ga yaqin mustaqil davlatga bo'linib ketgan edi. Bulardan eng kattasi Xorazm, So'g'd, Chag'aniyon, Tohariston, Ustashona, Choch va Farg'ona hisoblangan.

Arablar O'zbekiston bilan O'rta Osiyo hududiga 674 yildan boshlab bostirib kira boshladilar.¹

Arablarning O'rta Osiyo yerlariga kirib kelishi (VII-VIII asrlar) xalqning katta baxtsizlikka duchor qildi, tinch hayotini buzib rivojlanib borayotgan iqtisodiy va madaniy hayotini izdan chiqardi. Arablar o'zlari bilan islom dinini olib keldilar. O'rta Osiyo xalqlarining eski dini va u bilan bog'liq bo'lgan hamma yodgorliklarni buzdilar, vayron qildilar. Qimmatbaho metallardan ishlangan haykal va amaliy san'at buyumlari talandi, eritilib yuborildi, devoriy suratlar esa qirib tashlandi; loy va albastrdan yasalgan haykallar parchalandi. O'rta Osiyoning ilk feodalizm asridagi san'ati to'g'risida gapirganda, ko'rib o'tgan ko'pgina yodgorliklar tasodifan yoki xarobalarda bizgacha yetib kelganlikligining sababi ham mana shundadir.

¹ B.Ahmedov. O'zbekiston tarixi manbalari. T.,2001. 44-46-betlar

R. Shamsutdinov, Sh. Karimovlarning "Vatan tarixi" (T., 2010) kitoblariga e'tibor qaratar ekanmiz buning yaqqol isbotini ko'ramiz. 704 yilda Xuroson taxtiga Qutayba Ibn Muslim o'tiradi va Xurosonni batamom o'ziga bo'ysundiradi. Ana shu davrdan e'tiboran arab bosqinchilari tomonidan Movarounnaxrni zabt etishning ikkinchi davri bopshlanadi. Endi ular O'rta Osiyoni batamom bosib olishga qaror qiladilar. Qutayba ibn Muslimning 705 yilda ushbu maqsad yo'lidagi Axorun va Shuman (Surxon va Kofirixon oralig'idagi yerlar) hududlariga uyushtirgan birinchi yurishni muvaffaqiyatsiz yakunlanadi. Tarixchi Narshaxiyning ma'lumotiga qaraganda Qutayba katta tayyorgarlikdan so'ng sakson sakkizinchi yili (12 dekabr 706- 30 noyabr 707) Jayxun daryosidan o'tadi. Poykand axolisi bundan xabardor bo'lib, Poykandni juda mustahkam hisor bilan o'raydilar, qadimgi vaqtlarda Poykandni shoriston deganlar va mustaxkamligidan, uni «jez shahar» deb ataganlar ("Buxoro tarixi", 120-bet). Musulmonlar qattiq va shiddatli janglardan so'ng bu shaharni egallaydilar. Ikki o'rtada sulh tuziladi. Qutayba Baykand shaxrida amir qilib Varko ibn Nasr Bohiliyni tayinlab o'zi Buxoro tomon ilgari yurishni davom ettiradi. Poykandda hukmron bo'lib qolgan Barko shahar xalqiga jabr va zulm o'tkazadi, axloqiy buzuvchi ishlar bilan shug'ullanadi. Bunga javoban shahar fuqarolari qo'zg'olon ko'taradilar. Qutayba bu xabarni eshitib tezda orqasiga qaytadi va qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi. Uning buyrug'i bilan arab sahroyilari shaharni talaydilar va harob qiladilar. Rivoyat qilishlaricha, Qutayba Poykandni fatx qilganda bir butxonadan og'irligi to'rt yuz diram (bir dirham - 3,186 gr) keladigan bitta kumush but, ko'plab kumush jomlar, har biri kabutar tuxumidek keladigan marvaridlar topiladi. O'lja olingan barcha boyliklarni tarozida tortganlarida bir yuz ellik ming misqolni (I misqol- 4,240 gr) tashkil etadi. Xalqdan talab olingan barcha oltin va kumushlarni sovg'a o'laroq Hajjojga yuborganlarida u Qutaybaga xat yozib, minnatdorchilik bildirgan.¹

¹ R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T., 2010. 135-bet.

Lekin bu qirg'inlar xalq ijodini to'xtata olmadi. Bosqinchilarga qarshi isyon ko'targan, erk va ozodligi, uning son-sanoqsiz qo'g'olon va ko'tarishlari asta-sekin o'z samarasini ko'rsata boshladi. VIII asr o'rtalaridan boshlab madaniy va ijtimoiy hayot yana jonlana boshladi. O'rta Osiyo feodalizm formatsiyasining rivojlangan davriga qadam qo'ydi, nihoyat IX - X asrlarda O'rta Osiyo yana mustaqillikka erisha boshladi.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida madaniyat yuksalishi parvoz bosqichga chiqqanligi to'g'risida gap borar ekan, ayni shu hudud jahonni hayratga solgan buyuk mutafakkirlarni etishtirib berganligi, ilm-ma'rifat, betakror kashfiyotlar beshigi- tarixda «Musulmon madaniyati», «arab madaniyati» deb nomlangan tushunchalar bilan baholangani bejiz emas. O'rta asr tarixchilari va sayyohlari ushbu davrda Markaziy Osiyoda iqtisod, savdo o'sganligi, ko'rkam shaharlar qad ko'targanligi, ilm-ma'rifat gurkirab rivojlanganligi haqida ma'lumot beradilar. Monumental me'morchilik, tasviriy san'at, musavvirlik va musiqa san'ati beqiyos darajada rivojlangan, kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan¹. O'sha paytda «Buxoroda baland tosh devorlar bilan o'ralgan saroylar, turli rasmlar bilan bezatilgan mehmonxonalar, mohirlik bilan barpo etilgan bog'lar, hiyobonlar, hovuzlar» mavjud bo'lganligi haqida manbalarda qayd etiladi. Abdul Vafo al Buzjoniy o'zining «Geometrik qoidalarining hunarmandlarga kerakli tomonlari haqida» asarida turli geometrik usullar yordamida har xil naqshlar, bino bezaklari yasash yo'llari, quruvchi ustalarning tajribalari, badiiy usullari haqida hikoya qiladi. Boshqa manba'larda bu davrdagi tasviriy va musvurlik san'ati, hususan portret chizish haqida ma'lumotlar keltiradi².

Davlatimiz Rahbarining "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati"

¹ Пугаченкова Г. Ремпель П., История искусства Узбекистана. Т., 1965 г. 121 стр.

² Культура Среднего Востока, Городостроительная архитектура, Т., 1989 г. 191 стр.

mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida ta’kidlab o’tilganidek: “Tadqiqotchi-olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda bamisoli po’rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta’sir ko’rsatgan Sharq uyg’onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan”. Shu bilan birga, ko’plab tadqiqotchilar qayd etganidek, agar Yevropa Uyg’onish davrining natijalari sifatida adabiyot va san’at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo’lsa, Sharq Uyg’onish davrining o’ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, ximiya, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida namoyon bo’ldi.¹

Tasviriy va amaliy san’atda jonlanish bo’lib, me’morchilikda esa nodir yodgorliklar vujudga kela boshladi. Bu davrga kelib, O’rta Osiyo jahon ilm va fani taraqqiyotida muhim markazlardan biriga aylandi. Bu davrga yashagan tarixchilardan biri somoniylar idora qilgan davrda Buxoro ulug’vor markazi, podsholikning zamini, muqaddas zamonaning yodgorligida dongdor kishilari istiqomat qiladigan makon, butun yer yuzi adabiyotining ajoyib yulduzlari tug’uladigan joy va o’sha zamon olimlarining markazi bo’lib qoldi, deb yozgan edi.

Haqiqatdan ham, bu davrda O’rta Osiyo jahonga qator buyuk allomalarni etkazib berdiki, ular o’z mehnat va aql-zakovatlari bilan jahon ilmu fani taraqqiyotida yangi yo’nalish berdilar, Al-Xorazmiy, Yevropada, Avitsenna nomi bilan mahshur bo’lgan Abu Ali ibn Sinoning o’lmas asarlari ko’pgina mamlakat

¹ “O’rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” xalqaro konferensiya materiallari. 15-16 may, Samarqand. T: O’zbekiston- 2014.

o'quv yurtlarida bir necha asr mobaynida darslik vazifasini o'tab keldi. Bu asrning buyuk Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy kabi allomalari keyingi poeziya taraqqiyotida ham muhim o'rin egalladi Al-Beriniy, Al-Farobiy, Al-Farg'oniyy kabi qator mutafakkirlar ijodidagi materialistik dunyoqarash xalq ongiga ta'sir qildi.

Davlatimiz Rahbari ta'kidlab o'tilganidek: "Bugun, oradan deyarli ming yil o'tganidan keyin ham biz o'rta asrlarda yashab ijod qilgan, jahon sivilizatsiyasi rivojiga bebaho hissa qo'shgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining dahosi, ilm-fanning turli yo'nalishlaridagi izlanishlari va qomusiy bilimlari oldida hayratga tushamiz"¹.

Bu davrga kelib, me'morlikda ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi, qurish texnikasi mukammallashdi, qurilishda pishiq g'ishtning keng qo'llanilishi me'morlikning murakkab kompozitsiyalarini yaratish imkonini berdi. Egri ravoqli tomlar bilan birga gumbazli binolar qurilishi ham keng yulga qo'yila boshlandi. Pishiq g'ishlarni turlicha terish natijasida bino devorlarining o'ziga xos bezagini yaratish tenensiyasi ortdi. Ark va yarim arklar me'morlikda eshik darcha va tokcha-taxmonlarda ishlatila boshladiki, bular ham shu davr binolarining o'ziga xos ko'rinishida muhim rol o'ynaydi. Bu davrda naqshinkor mexmonxonalar ko'rkam istirohat bog'lari hamda antiqa hovuzlar bunyod etildi, bular so'zsiz keying madaniy taraqqiyotda muhim rol o'ynaydi. Shu davrlarda, hatto islom dini bilan bog'liq bo'lgan gumbazli machitlar bo'lganligi to'g'rida fikrlar mavjuddir. Bu davrning eng nodir yodgorligi somoniylar maqbarasidir. Bu maqbara haqli ravishda jahon yodgorligi hisoblanadi. Bu yodgorlik dastlab o'zining soddaligiva strukturasining aniqliginisbatlarining nihoyatda mutanosibligi va me'morlikshakl bezagining bir-biri bilan nihoyatda nafis uyg'unlanib ketganligi bilan ajralib turadi. Maqbara asosi kvadrat bo'lib uning hajmi katta emas (7,20x7,20 m) to'rt tomonida

¹ "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" xalqaro konferensiya materiallari. 15-16 may, Samarqand. T: O'zbekiston- 2014.

nayzasimon apkli eshik mavjud. Maqbara tashqi tomondan tepaga bir oz torayib boruvchi kub va uning ustiga o'rnatilgan yarim aylana shaklidagi eslatadi. Binoning tashqi devor yuzasi pishiq g'ishtning turlicha taxlanishi hisobiga badiiylashtilgan g'ishtning goh yon, goh burchak qilib qo'yilishi yuzada yorug'-soya o'yinini ochilib, uning xushmanzalari bo'lishini ta'minlangan. Bu yorug'-soya o'yini esa quyosh nurining o'zgarishi bilan turlanib boradi va binoga har safar qaytarilmas joziba kiritadi. Bir oz mungli ko'ringan bino abadiy uyqudagilar uchun nihoyatda sokin va mungli sukut saqlayotgandek tuyuladi.¹

IX-X asrlarda O'rta Osiyo san'atida haykaltaroshlik hali to'liq siqib chiqarilmagan egri yozuv manbalarida bu asrlarda keng maydonlarda haykallar bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Lekin ular bizgacha saqlanmagan. Shu davrdan boshlab, ijtimoiy hayotda rang va o'yma naqqoshlik san'ati keng o'rinni egallay boshlagan.

Naqqoshlik o'z ijodlarida turli geometrik shakllardan foydalanganlar. Astasekin naqqoshlik san'ati davr kishilarning fikr-tuyg'ularini ifodalovchi vositaga aylangan. Bu davrda rassomchilik va miniatyura san'ati ham mavjud bo'lgan deyishga asos bor. Yozuv manbalarida hukmdorlarning qasr va uylari, mexmonaxonalari devorlari suratlar bilan bezatilganligi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bu suratlarda jang, ov manzaralari, qabul marosimi va bazmlar tasvirlangan, hokimlarning portretlari ishlangan bo'lgan.

Bu davrda tasviriy san'atning bo'lganligi haqidagi ma'lumotni sharqning buyuk allomasi Abu Ali ibn Sino portretini chizish to'g'risidagi voqea ham xarakterlaydi.

¹ B.Ahmedov. O'zbekiston tarixi manbalari. T., 2001. 113-bet

Abu Ali ibn Sino shu davrning shohi Mahmud G'aznaviy injiqliklarini ko'tara olmay, uning saroyidan qochib ketadi. Bundan xabar topgan shoh rassom Abu Nasr bin Arronga uning portretini ishlash va boshqa rassomlarga esa shu portretidan 40 nusxa ko'chirtib, qo'shni davlatlarga yuborishni buyuradi.

IX-X asrlarda amaliy-dekorativ san'at ham yuksak bo'lgan O'rta Osiyoning ko'pgina yerlarida kulolchilik ustaxonalari bo'lgan. Ayniqsa, Buxoro yaqinidagi yerlarda chiqariladigan shoyi materiallari sharqning ko'pgina zadogonlari xonadonlarida alohida e'zozlangan. Taqinchoq va boshqa bezak buyumlari sevib ardoqlangan. Bu davrda kulolchilik ham mashhur bo'lgan. Ko'p hollarda oq fonga bo'yalgan spol yuzalariga qora qizqish-jigarrang bo'yoqlarda tasvirlar tushirilgan.

Bu davrlarda turli mamlakatlar xalqlarining ilmiy bilim va yutuqlar bilan bir-birini boyitib borishi alohida rol o'ynadi. Buyuk Ipak yo'li orqali Yevropaga, Yevropadan esa Osiyoga Sharq va G'arb olamidagi ulug' alloma va mutafakkirlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar yetkazildi. Sokrat, Platon, Aristotel, Ptolomey va antik davrga mansub boshqa buyuk allomalarning ilmiy asarlari, g'oya va kashfiyotlarini o'rganish uchun amaliy imkoniyat vujudga keldi.

Ma'lumki, o'sha davrlarning an'analarga ko'ra, ma'rifatparvar mutafakkir va faylasuflar, olimlar va shoirlar odatda hukmdorlar va sultonlar saroylarida panoh topganlar. Ular orasida IX-XI asrlarda Xivada tashkil etilgan Ma'mun akademiyasi va "Baytul hikma", ya'ni "Donishmandlik uyi" degan nom bilan shuhrat qozongan Bag'dod akademiyasida, shuningdek, XV asrda Samarqandda shakllangan Mirzo Ulug'bekning ilmiy maktabida samarali mehnat qilgan bir guruh olimlar butun dunyoga dong taratdilar.

Tadqiqotchi-olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda bamisoli po'rtnadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan Sharq uyg'onish

davri–Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

Shu bilan birga, ko'plab tadqiqotchilar qayd etganidek, agar Yevropa Uyg'onish davrining natijalari sifatida adabiyot va san'at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo'lsa, Sharq Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, ximiya, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida namoyon bo'ldi. O'rta asrlarning ilk davrida Sharqda amalga oshirilgan buyuk ilmiy kashfiyotlar haqida gapirar ekanmiz, zamonaviy matematika, trigonometriya va geografiya fanlari taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nomini birinchilar qatorida tilga olamiz. U o'nlik pozitsion hisoblash tizimini, nol belgisi va qutblar koordinatalarini birinchilardan bo'lib asoslab berdi va amaliyotga tatbiq etdi. Bu esa matematika va astronomiya fanlari rivojida keskin burilish yasadi. Al-Xorazmiy algebra faniga asos soldi, ilmiy ma'lumot va traktatlarni bayon etishning aniq qoidalarini ishlab chiqdi, u astronomiya, geografiya va iqlim nazariyasi bo'yicha ko'plab ilmiy asarlar muallifidir. Allomaning dunyo ilm-fani rivojidagi xizmatlari umum e'tirof etilgan bo'lib, Sharq olimlari orasida faqat uning nomi va asarlari "algoritm" va "algebra" kabi zamonaviy ilmiy atamalarda abadiylashtirildi. Ahmad Farg'oniy tomonidan IX asrda yaratilgan "Astronomiya asoslari" fundamental asarida olamning tuzilishi, Yerning o'lchovi haqidagi dastlabki ma'lumotlar, sayyoramizning sharsimon ko'rinishga ega ekani xususidagi dalillar mavjud bo'lib, mazkur kitob XVII asrga qadar Yevropa universitetlarida astronomiya bo'yicha asosiy darslik sifatida o'qitib kelingan hamda Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Kolumb, Magellan va boshqa sayohatchilarning kashfiyotlari uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan. Ahmad Farg'oniyni amaliy yutuqlaridan biri uning o'rta asrlardagi asosiy astronomik asbob-usturlob nazariyasini ishlab chiqqani va shuningdek, Nil

daryosida “nilomer” degan, ko’p asrlar davomida suv sathini o’lchaydigan asosiy vosita sifatida xizmat qilib kelgan mashhur inshootni yaratgani bo’ldi. Men O’zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida Misr Arab Respublikasi poytaxti Qohira shahrida bo’lganimda, ana shu nilomerni ko’rib, bu ulug’ ajdodimizning ilmiy dahosi oldida yana bir bor hayratga tushish baxtiga muyassar bo’ldim. Fazoviy trigonometriya asoschisi deb tan olingan, o’zining matematika va astronomiya sohasidagi kashfiyotlari bilan shuhrat qozongan yana bir buyuk alloma Abu Nasr ibn Iroqdir. Uni haqli ravishda “Ikkinchi Ptolomey” deb ataydilar. Ulug’ qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniyning ilmiy dahosi bilan yaratilgan mislsiz kashfiyotlarga to’liq baho berishning o’zi qiyin. Beruniyning 150 dan ziyod ilmiy ishlaridan bizgacha faqat 31 tasi yetib kelganiga qaramasdan, alloma qo’lyozmalarining qo’limizdagi ana shu to’liq bo’lmagan namunalari ham uning naqadar serqirra meros qoldirganidan dalolat beradi. Beruniy dunyo ilmfanida birinchilardan bo’lib dengizlar nazariyasi va Yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o’ziga xos yangi g’oyalarni taklif etdi, Yer radiusini hisoblab chiqdi, vakuum, ya’ni bo’shliq holatini izohlab berdi, Kolumb sayohatidan 500 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qit’a mavjudligi haqidagi qarashni ilgari surdi, minerallar tasnifi va ularning paydo bo’lish nazariyasini ishlab chiqdi, geodeziya faniga asos soldi. Shuning uchun ham XI asr butun dunyodagi tabiiy fanlar tarixchilari tomonidan “Beruniy asri” deb atalishi bejiz emas. “Islom olamining eng mashhur faylasufi va qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri” degan unvonga sazovor bo’lgan Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati avlodlarda alohida g’urur va ehtirom tuyg’ularini uyg’otadi. Ilmiy tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan bu ulug’ zot o’z umri davomida 450 dan ortiq asar yaratdi. Ularning aksariyati avvalo tibbiyot va falsafa, shuningdek, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa, adabiyot va tilshunoslik sohalariga bag’ishlangan. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Frensis Bekon va boshqa ko’plab olimlar avlodi uning asarlarini o’qib, hayratga tushganlar. Biz doim g’urur va iftixor bilan e’tirof etamizki, tibbiyot tarixida eng

mashhur bo'lgan, "Tib qonunlari" deb atalgan o'zining bebaho fundamental asari bilan Ibn Sino keyingi bir necha yuz yillar uchun tibbiyot fanlari taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini oldindan belgilab berdi, hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan amaliy tibbiyot va farmakologiya sohalarining eng muhim usullariga asos soldi. Bejiz emaski, bu kitob Yevropada XV asrda chop etilgan dastlabki kitoblardan biri bo'lgan va Yevropaning yetakchi universitetlarida qariyb 500 yil davomida tibbiyot ilmi ayni shu asar asosida o'qitib kelingan. Ibn Sino va Beruniyning bizgacha yetib kelgan Aristotelning "Koinot haqida kitob" asariga taalluqli yozishmalari buyuk allomalarimizning ilmiy muloqot olib borish, antik davr falsafiy qarashlarini chuqur anglash va ularni rivojlantirish borasida naqadar yuksak darajaga ko'tarilganining mumtoz namunasidir. X-XI asrlarda Xorazm zaminida ijod qilgan Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk alloma va mutafakkirlarimizning xizmatlari ularning ilmiy ishlari va asarlari doirasi bilangina chegaralanib qolmaydi, balki insoniyatning intellektual tarixida chuqur iz qoldirgan ilmiy maktab – Xorazm Ma'mun akademiyasini shakllantirishdek muhim masalani ham qamrab oladi.

X asrning qomusiy allomasi Abu Nasr Forobiyning zamondoshlari, universal bilimlarga ega bo'lgani bois, "Sharq Aristoteli" deb ataganlar. U ko'plab fanlarni ilmiy kashfiyotlar bilan boyitdi, turli mamlakatlar olimlarining falsafiy qarashlarini rivojlantirdi va 160 dan ortiq asar yozdi. Ulardan eng mashhurlari "Mohiyat xususida so'z", "Fanlarning paydo bo'lishi haqida kitob", "Tafakkur mohiyati" va boshqa asarlar hisoblanadi. Forobiy asarlarining asosiy qismi ko'plab Yevropa va sharq tillariga tarjima qilingan va hozirgi kunga qadar chuqur tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelmoqda. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining butun bir avlodi haqida so'z yuritish ekanmiz, Amir Temur va Temuriylar davri deb nom olgan davr haqida, nomi ilm-ma'rifat osmonida bamisoli yorqin yulduz bo'lib porlab kelayotgan Mirzo Ulug'bek va uning Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi singari ko'plab safdoshlari va shogirdlari xususida eslamasdan o'tolmaymiz. Barchamizga

yaxshi ma'lumki, Amir Temurning nabirasi bo'lgan, 40 yil Samarqandda hukmdorlik qilgan Mirzo Ulug'bek astronomiya sohasidagi buyuk alloma sifatida shuhrat qozongan va uning nomi haqli ravishda Kopernik, Jordano Bruno, Galiley va boshqa ulug' ilm-fan daholari qatorida tilga olinadi. Mirzo Ulug'bekning XV asrda tuzgan astronomiya jadvalida 1018 ta yulduzning holati va joylashuvi bayon qilingan bo'lib, bu asar astronomik o'lchovlar bo'yicha XVI asr davomida yaratilgan birinchi yangi katalog edi. Mirzo Ulug'bekning safdoshi Al-Koshiy birinchi bo'lib o'nlik kasrlarni ilmiy iste'molga joriy etdi, erkin darajalar ildizlarining izchil yaqinlashib borishi va ularni topish metodlarini ishlab chiqdi. Mirzo Ulug'bek observatoriyasi bilan Samarqandni o'rab turadigan eng baland tepaliklardan birida joylashgan, buyuk alloma nomi bilan ataladigan muzeyga tashrif chog'ida yanada batafsil tanishish mumkin. Abu Abdulloh Rudakiy, Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ko'plab buyuk faylasuflar, shoir va ma'rifatparvarlarning ijodiy merosida donishmandlik va borliq olamni gumanistik anglashning juda ulkan, bitmas-tuganmas xazinasini saqlanib kelmoqda. Bu meros haqiqatan ham jahon ahamiyatiga molik bebaho boylik hisoblanadi. Dunyo tarixidagi birinchi turkiy tillar lug'ati bo'lmish "Devoni lug'atit-turk" kitobi muallifi Mahmud Qoshg'ariy bo'lib, u o'z asarida yuksak mahorat bilan to'plashga erishgan so'z boyligining tom ma'nodagi oltin zarralarini – turkiy maqol va she'rlarni ham keltirib o'tgan. Qoshg'ariy turkiy xalqlarning tili, madaniyati, etnografiyasi va folklorining birinchi tadqiqotchisi hisoblanadi. Arab tili grammatikasining asoschisi sifatida tan olingan buyuk tilshunos, adabiyotshunos, geograf va faylasuf alloma – Mahmud Zamahshariy hayotlik davridayoq keng shuhrat qozongan. U, shuningdek, tarixdagi birinchi ko'p tilli lug'at – arabcha-forscha-turkiy lug'atning asoschisi bo'lgan. Albatta, biz barchamiz o'rta asrlarda Sharqda yashab ijod qilgan, o'sha davr voqealaridan guvohlik beradigan bebaho asarlar yaratgan buyuk tarixchilar avlodiga, eng avvalo, Ahmad ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abro', Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy va

boshqa allomalarga o'zimizning cheksiz hurmat-ehtiromimizni bildirishimiz ham qarz, ham farzdir.¹

XI-XII asrlarda somoniylar sulolasi o'rnini turkiylardan bo'lgan qoraxoniylar hamda saljuqiylar sulolasi egalladi. Sotsial-iqtisodiy rivojlanish natijasida shaharlar yanada kengaydi, madaniyat o'sdi. Bu davrga kelib katta qurilishlar rivojlanishi mavjud qurilish konstruksiyalarining o'zgarishi va murakkablashishiga olib keldi. Bu o'zgarishlar pishiq g'ishtdan foydalanish bilan bog'liq gumbaz va ravoqlarning xarakterida o'z ifodasini topdi. Katta qurilishlar esa qo'riqchilarga talabni oshirdi. Hunarmandlar sexlari vujudga kela boshlagan. Ayni shu davrga kelib, umuman keying feodalizm davriga xos bo'lgan monymental me'morlik qurilmalarning yangi tiplari yaratildi. To'rt ayvonli kompozitsiya, ayniqsa keng yoyildi. Bu xususida Doya xotin (Turkmaniston), Rabati malik (Buxoro) binolari diqqatiga sazovordir. Binoning old tomoni baland to'rt burchakli peshtoq bo'lib u nayzasimon arkli taxmonga o'xshash kirish qism bilan boshlangan.

VI-VII asrlarda machit qurilishi ham keng rivojlandi va uning o'ziga xos tipi yuzaga keldi. Asosi kvadrat shaklidagi gumbazli bino kompozitsiyalari O'rta Osiyo yerlarida keng tarqaldi, va mahalliy sharoitga qarab, o'ziga xos fazilat va ko'rinish kashf etdi. Bu davrga peshtoq-gumbazli maqbaralar qurilishi ham rivojlandi va peshtoqlar esa badiiy qilib bezatildi. XII asrning nodir yodgorligi bo'lgan Sulton Sanjar maqbarasi kvadrat shaklida bo'lib uning markaziy qismida esa silindirlik barabanga gumbaz o'rnatilgan.

Xuroson me'moriy maktabi uchun, mahobatli, yirik maqbaralar qurish xos bo'lgan. Ana shunday xususiyatlar XII asr o'rtalarida Marvda me'mor Muhammad binni Otsiz Saraxsiy tomondan qurilgan Sulton Sanjar maqbarasidek me'moriy

¹ "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" xalqaro konferensiya materiallari. 15-16 may, Samarqand. T: O'zbekiston- 2014.

shoh asarda yaqqol gavdalangan Mazkur markaziy kompozitsiyali g'oya yirik va mustasham bir xonali bino qandaydir majmuaning tarkibiy qismi bo'lgan. Hozir u ochiq galeriyalar va yirik gumbaz bilan tugallanuvchi yakka kubsimon inshoot ko'rinishda bo'lib, o'zining ko'k qoplamasidan ayrilgan. Maqbara galeriyasining g'isht bezaklari majmui va ganch o'ymakorligi bezab turibdi, ichki tomondagi bezaklarni oq fonda ko'k va qizil rangdagi geometrik va epegrafik tarzdagi yozuvlar tashkil etadi¹.

O'zgandagi maqbara peshtoqlari, ayniqsa uning janubiy tomondagisi nafis qilib bezatilgan.

Bu davrga qurilgan ko'pgina maqbaralar va machitlar peshtoq-gumbazli kompozitsiya keng ishlatilgan, ularni bezashda esa o'ymakorlik san'atidan keng foydalanildi va bu san'at ko'rinishi ham mahalliy sharoit va davr xarakteriga qarab o'zgarib bordi.

Ko'hna Urganch (Xorazm)dagi Faxriddin Roziy va maqbarasi o'ziga xos xususiyatga ega. Garchi u O'rta Osiyoda keng tarqalgan peshtoq-gumbazli kompozitsiya tipiga kirsa ham lekin u qirrali barabanga o'rnatilgan chodirsimon gumbazdan tashkil topgan.

XII-XIV asrlarda jadal rivojlangan Xorazm me'moriy maktabi ko'rib o'tilayotgan davr mobaynida eng yorqin va o'ziga xos xususiyat kasb etdi. Uning uchun birinchi galda ko'k sirlangan g'ishlardan iborat naqshlar bilan bezatilgan yoki butkul ular bilan qoplangan konussimon yoxud qirradosh chodirsimon yoxud qirradosh chodirsimon gumbazlar, chuqur o'ymakorlik namunalari bilan boy bezatilgan maqbara old tomonining naqshinkorligi xosdir. Qo'xna Urganch Faxriddin Roziy maqbarasi (12 asr) shu tarzda bunyod etilgan. Uning kubsimon

¹ Jaloliddin Mangeberdi.. T.,1999. 58-bet

asosiy qismi ustida piradisimon gumbaz bilan qoplangan 12 qirrali tuzilma qad ko'tarib turibdi. Maqbaraning asosiy old tomoni o'yma terrakota bilan bezatilgan.¹

XII-XIV asrlarda qurilgan Sulton Takash maqbarasi ham mazkur maktab ijodiga mansubdir. Bu yerda ham kvadrat prizma ustida konussimon gumbazli ko'p qirrali tuzilma qad ko'tarib turibdi.

Uchburchak taxmon ko'rinishida ishlangan Sulton Takash maqbarasi peshtoqning kirish ravog'i odatdan tashqari bezatilganligi diqqatga sazovordir. Bezatilishi bo'yicha O'rta Osiyoda saljuqiylar me'morligiga o'xshash qator jihatlar xosdirki, bu hol o'z navbatida mazkur ikki mintaqaning muayyan madaniy aloqalaridan shohidlik beradi. Dastlab bu binoga boshqa inshootlar tutashgan edi. Buni ayrim tadqiqotchilar xorazmshoxlarning saroyi boshqalar esa ibodat bilan bog'liq majmuaning bir qismi deb hisoblashadi.²

Turkmanistondagi peshtoq gumbazli binolar bezatilshiga g'ishtning badiiy imkoniyatlaridan keng foydalanilgan. XI-XII asrda minora qurilishi ham keng odat tusiga kira boshladi.

Buxorodagi Kalon maschidi minorasi (balandligi 50 metr O'rta Osiyodagi eng baland minora), Jarqo'g'on minorasi ayniqsa diqqatiga sazovordir. Bulardan g'isht minora yuzasi naqshining tashkil etuvchi birdan-bir element bo'lib qolgan.

1127 yili o'ta mustahkam qurilgan va shu boisdan bor bo'yicha (qariyb 50 metr) saqlanib qolgan Buxorodagi Kalon minorasi yirik minoralardan biri bo'lgan. Uning yozuvlari orasida usta Baqo nomi saqlangan, rivoyatlarga qaraganda minora poydevorini bino etgach usta Baqo poydevor mustahkam bo'lsin uchun uch yilcha g'oyib bo'lgan, keyin qaytib, boshlangan qurilishni davom ettirgan. Minorayi

¹ Jaloliddin Mangeberdi. T.,1998. 57-bet.

¹Shu kitob. T.,1999. 56-bet.

Kalon Buxoro vohasida XX asr boshlariga qadar barpo etilgan keyingi barcha minoralar uchun namuna bo'lgan.¹

Saraxslik me'mor Ali ibn Muhammad tomondan 1109 yili qurilgan Jarqo'g'ondagi minora bizgacha saqlanib qolgan eng ko'hna minoralardan biri bo'lib, me'morlik san'atining o'ziga xosligi ajralib turadi. Minora tanasi 16 ta nim ustunlar-20 metr balandlikka kotibalarning yotiq shakllari bilan kesishgan taram-taram qovirg'alar bilan bezatilgan. Minoralarning ikkinchi pog'onasi yuqolib ketgan hozir uning balandligi 21,6 metr diametri 5,4 metr.

Bu davrda monumental-dekorativ san'ati ko'proq o'ymakorlik va bo'rtma naqqoshlik san'ati sifatida namoyon bo'ladi. Bu davrda qurilgan binolarning devorlari sirli koshinlar, pishirgan g'isht va shakllar bilan bezatilgan. Lekin devoriy suratlar to'g'risida gapirish qiyin. Albatta, bezash san'atidan tasviriy san'at elementlari butunlay chuqur ketgan deyish mumkin emas. Chunki ayrim yodgorliklardagi (Buxorodagi Mag'oki, Attori machiti, Termizdagi saroy qoldiqlari) elementlar uchraydi. Lekin real shakllar nihoyatda soddalashtirilgan va naqsh elementiga aylantirilib yuborilgan. Shunga qaramay ulardan ayrimlari, ayniqsa, hayvonlar tasviri real va ta'sirli ko'rinishga ega.

Masjidlar biz so'z yuritaytayotgan davrda uch asosiy turga bo'lingan; mahalla masjidlari, jomi masjidlari hamda hayit nomoz o'qiydigan masjidlar.

Masjidlarning VII asrdagi har uchala turi Buxoroda yaxshi saqlangan. Mahalla masjidlari muayyan mahalla aholisining har kuni besh mahal nomoz o'qishi uchun mo'ljalgan. Bu turkumga o'rni va vazifasiga ko'ra Buxorodagi VII asr Mog'oki Attori mahalla masjidini kiritish mumkin. An'anaviy bo'lmagan va me'moriy jihatdan muhtasham bu masjid g'oyat qadimiy asosga shuningdek noyob

¹ Jaloliddin Mangeberdi. T.,1999. 53-bet.

va qiziqarli qurilish tarixiga ega, X asr muallifi Muhammad Narshaxiyning shodlik berishicha, IX–X asrdayoq Attoron bozori yaqinida zardushtiylar butxonasi o'rniga "Buxorodagi ajoyib masjidlardan biri" Moh masjidi bunyod etildi. 937 yili shaharda ro'y bergan yirik yong'in vaqtida yonib ketgan. Keyinroq, yonib ketgan ana Moh masjidi o'rinda VII-asrda uning to'tr ustunli tarhini saqlagan holda yangi masjid bunyod etildi, hozir u Mog'oki Attorim nomi bilan mashur. Bu masjid Buxoroda VII-XIV asrlarda faoliyat olib borgan. Undan bizning davrgacha nimustun jim-jimador g'ishdan, ba'zi-ba'zida ko'k rang bilan ajratib ko'rsatilgan o'yma terakota va ganch o'ymakorligadan iborat noyob bo'rtma bezaklar bilan bezatilgan janubiy peshtoqgina yetib kelgan. Mog'oki Attoron masjidi XV asrda ta'mirlandi, XVI asr o'rtalarida esa qayta qurildi.¹

Bu davrda amliy-dekorativ san'at buyumlari badiiy bezatilgan. Bu bezaklar ichida real hayotdan olingan voqealar tasviri ham uchraydi. Chingizxon galalarining O'rta Osiyoga kirib kelishi uning gullab turgan san'ati va madaniyatini vayron qildi. Noyob yodgorliklar yoqildi, yo'q qirib yuborildi. Qator qo'zg'olonlar erksevar xalqning ozodlikka bo'lgan intilishini namoyon etadi. Shu davrlarda ham me'morlik amaliy san'at an'analari yangi g'oya va badiiy uslublar bilan boyib bordi, me'morlikka yangi texnikaviy uslublar bilan yuzaga keldi. Buxorodagi XIII-XIV asr me'morlik kompozitsiyalari bunga dalildir. 1261 yilda bunyod etilgan Sayfiddin Buxorziy maqbarasi bu xususda xarakterlidir. Buxoroga XIV asrda tashrif buyurgan arab sayohi Ibn Batutaning shohidlik berishicha Sayfiddin Boxarziy majmuasiga shunday degan: "Biz buyuk avliyolardan biri olim, xudojuy zohid shayx Sayfiddin Boxarziyning qabri joylashgan Fathobod nomi bilan mashhur bo'lgan Buxoro degan manzilga to'xtadik. Mazkur shayx va biz qo'ygan zavifa nihoyatda katta bo'lib ulkan miqdordagi vaqfga (daromadga) egaki undan musofirlar tamaddi qiladilar".

¹ Jaloliddin Mangeberdi. T.,1999. 56-bet.

Uning so'zlarini XIV asr vaqf hujjatlarida ma'lum bo'lishicha, inshootlar majmuasi shayx maqbarasini, unga janub tomondan taqalgan xonaqoxi xizmatkorlar va kambag'allarning doimiy yashash joyini o'z ichiga olgan.

Baland peshtoqli va tuxumsimon qo'sh gumbazli bu maqbara ilohiyat olamiga bag'ishlangan Samarqand, Xiva va boshqa yerlarda ham ayrim me'morlik yodgorliklari yaratilganligi fikrimiz dalilidir.

II.2. O'rta Osiyo san'ati va madaniyati taraqqiyotining yangi bosqichi

(XIV–XV asrlar).

O'rta Osiyo san'ati va madaniyati taraqqiyotining muhim bosqichi XIV asrning 70-yillaridan boshlabdi. Bu davrga kelib, dastlab O'rta Osiyoda Amir Temur (1336-1405) hokimyat tepasida bo'lgan davrda Samaqand Sharqdagi yirik davlat markaziga aylandi. O'z davlati poytaxti bo'lgan Samaqandning shuhratini oshirishga harakat qilib Amir Temur o'zga yurtlardan keltirilgan mohir usta, hunarmand va binokorlar ijodidan foydalandi. Shahar atrofida obod qishloqlar barpo etildi. U tug'ilib o'sgan Kesh shahriga (hozirgi Shahrisabz) ham katta e'tibor berdi O'rta Osiyoning bir qator yerlariga yirik inshootlar qurdiradi. Jahon savdo yo'li yana Samaqanddan o'tkazdi. (Oltin o'rda hukmronligi davrida karvon yo'llar u yerdan chetlatilgan edi.) Temur o'zining butun faoliyatini o'z saltanatini mustahkamlash va abadiylashtirish uchun fan, san'at va adabiyotdan foydalanishga harakat qildi.

Temurning nabirasi Ulug'bek davrida matematika, tibbiyot, astronomiya taraqqiy qildi.

Amir Temur o'rnatgan odatga ko'ra uning barcha nabiralari tug'ulgandan boshlab saroy muhitiga tarbiyalanishi zarur edi. Shu sabab Ulug'bek ham davrining bilimdon, zakii ayollaridan bo'lgan Saroymulkxonim tarbiyasiga topshirildi. To'rt yoshga to'lganda mashhur oqin va olim shayx Ozariy unga muallim sifatida tayin etiladi. Ana shu davrdan boshlab Ulug'bekning kitobga mehri tushadi.

Tarixchi olimlarning yozishicha, Ulug'bek ko'p vaqtini bobosi Ko'ksaroyidagi xos kutubxonasida ilohiyat, riyoziyat, hadis, tarix, falsafa, tib, falokiyot va boshqa fanlarga oid minglab mo'tabar kitoblar saqlangan. Sohibqiron vafotidan keyin, aniqrog'i 1405-yildan to 1409 yilgacha Ulug'bek otasi Shohruh

Mirzo huzurida bo'ladi. Shohruh Mirzoning kitobga mehri juda yuqoriligidan u Hirotida ulkan bir kutubxona bunyod ettirgan edi.

Ulug'bek Samaqanddagi, Hirotidagi kutubxonada juda ko'plab nodir asarlarni o'qishga muyassar bo'ladi. Jumladan yunon olimlari Aflotun, Arastu, Gipokrat, Ptolemeylarning mumtoz asarlari bilan yaqinidan tanishdi. Shuningdek ulug' vatandoshlari Muhammad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muso al-Xorazmiy va boshqa ko'plab olimlarning ilmiy asarlarini qunt bilan o'rganib chiqadi. Chunki u ilmiy tadqiqotga qo'l urishdan oldin katta bilim to'plash kerakligini yaxshi tushinardi. Ulug'bek o'z davrining yirik madaniyat va marifat markazlaridan, bo'lgan Buxoro, Samaqand shaharlarida madrasalar barpo ettirib, ilmiy taraqqiyotga alohida ahamiyat berdi.

Ulug'bek qurdirgan madrasalar o'z davrining dorilfunlari hisoblanib, ularda mashhur olimlar ilohiyat ilmlaridan tashqari riyoziyat, geometriya, astronomiya, tibbiyot, tarix, ilmi aruz kabi fanlardan saboq berishgan.

Madrasani muvaffaqiyat bilan yakunlagan talabalarga sanad ya'ni shahodatnoma berilgan. Ana shunday talabalardan biri mashhur shoir Abdurahmon Jomiy bo'lganini eslatib o'tmoqchimiz. Ulug'bek madrasasi asarlar davomida musulmon sharqida davomida musulmon sharqida dong taratayotgan olim bilim maskani bo'lgani bois ham uni qurish chog'ida me'morlardan shunga xos uslub va naqshlardan foydalanish talab etilgan. Shu tariqa betakror san'at asri-benihoyat maftunkor me'moriy obida bino etiladi Mazkur me'mori bo'lgan Ulug'bek sirlangan g'ishlarning rangi, ularning joylashshi va o'zaro uyg'unligiga ham alohida e'tibor beradi. Shundan bo'lsa kerak, naqshlardagi yulduzsimon guruxlar va arab imlosidagi yozuvlar Ulug'bekning marifatparvarligidan, mohir bunyodkoru falakiyot ilmining bilimdoni ekanidan hikoya qilayotgandek tuyuladi, kishiga.

Fan tarixiga bu ilmiy markaz "Ulug'bekning Samaqand akademiyasi" va "Ulug'bekning Samaqand astronomiya maktabi" nomlari bilan kirdi. Birinchi

nomni fransuz faylasufi va yozuvchisi Volter (1694-1778) bergan bo'lsa, ikkinchi nomni akademik Qori Niyoziy berdi¹.

“Samaqand akademiyasi” nomi jahonga mashhur. Ushbu rasadxona 1424-1429 yillarda qurilgan. Rasadxona binosining sirti koshin va parchinlar bilan bezatilgan. Ulug'bekning xonalariga o'zi va o'zidan oldin o'tgan olimlarning sohasida erishgan muhim yutuqlarini turli shakllar, tasvir va raqam-naqshlar bilan chizdiradi. U xuddi shunday uslubni Samarqand madrasasida ham qo'llagandi. Aniqrog'i madrasa ravog'iga sayyoralarning quyosh atrofida ma'lum tartib bilan joylashishi tasvirini soldirgani. Ushbu tasvir madrasa peshtoqiga ishlangan o'n ikki burchli shalk va qorachig'ini eslatuvchi naqsh sifatida hozirgacha saqlanib qolgan.

“Samaqand akademiyasi” olimlari o'sha davr o'lchami bilan olganda olamlashimul natijalarni qo'lga kiritishadi. Jumladan, ekliptikaning og'maligi, beshta sayyoraning Zuhra (venera), Zuhul (Saturn) Mirruh (Mars), Mushtariy (Yupiter) va Utonid (Merkuriy)ning yillik harakatini, yulduz yilining uzunligi, 1018 ta yulduzni o'z ichiga olgan jadval va aholi yashaydigan manzillardan 683 tasining jug'rofiy o'lchamlarini tuzganlar.²

Buyuk olim va davlat arbobi Ulug'bek fan taraqqiyotiga e'tibor berib, 1428 yili olamshumul ishni oxiriga etkazdi. Uning rahbarligida Samaqand shahrida o'sha zamonda tengi yo'q rasadxona qurildi. Rasadxona xalq orasida “Naqshi jahon” nomi bilan mashhur edi³. Buxoro, Samaqand va G'ijdivonda madrasalar qurish haqida farmonlar berdi. Buxoroda qurilgan madrasa tepasiga “Bilimga intilish har bir muslim va muslimaning burchidir” deb yozdirib qo'ydi. O'zi esa astronomiya bilan chuqur shug'ullanib, yulduzlarining aniq jadvalni tuzib chiqdi. Mirzo Ulug'bek madrasalar qurish bilan cheklanib qolmadi. U Samaqandni va

¹ Abdullayev A. Ulug'bek akademiyasi. T., 1993.

² Jamiyat//. 28.03. 2008. №14 (1791).

³ S.Vohidov. A. Qodirov. Sharq mashhur sulolalari. T.: 2013. 364-bet.

Movaraunnahrning boshqa yirik shaharlarni obod qilishga ham katta kuch-quvvat, g'ayrat sarflanadi. Ayniqsa, Samaqanddagi Registon maydonidan juda katta hajmdagi qurilish ishlarini amalga oshirgani tarixdan ma'lum. Shuningdek u bobosi Amir Temurga davrida boshlanib, ayrim sabablarga ko'ra bitmay qolgan bir talay muhim binolarni ham qurib bitkazdi.¹

Britaniya muzeyida saqlanayotgan, barchaning diqqatini tortib turadigan bir eksponat, ya'ni kosa Mirzo Ulug'bekka tegishlidir. Bu kosa ham ko'rkamlikda Shohjahon kosasidan qolishmaydi. Hajmi, g'ayrioddiy dastasi, tovlanib turadigan rangi, bejirim shakli bilan amaliy san'atning noyob durdonasi sifatida o'ziga xos tarifga ega. Oval shaklidagi bu ixcham kosaning kosaning balandligi 5, uzunligi 15 santimetr. Zaytun-ko'kimtir-sariq rangda. Ko'rinishi nixoyatda xushbichim, ko'rkam bu kosaning ham ajoyib xususiyati bor. U kosa Mirzo Ulug'bekni zilziladan, chaqmoqdan saqlagani qayd etiladi. Bu chiroyli kosaga ham kishini zaharlovchi modda tushsa u kosa darhol parchalanib ketishi mumkinligiga ta'rif berilgan. Demak, shox va olim Mirzo Ulug'bek bu kosadan gulob, sharbat va boshqa suyuqliklarni, taomni ham bamaylixotir tanovul qilavergan. Kosaning gardishiga arab alifbosida "Ulug'bek Tarag'ay" turk tilida "Tangrining mehri cheksizdir" so'zlari xusnixat talablari darajasiga o'yib yozilgan. Eksponat muxtasham yozuvlar, shakl va mazmun jihatdan nafis san'at asari sifatida, musulmon renessasining ko'rkam ko'rinishlaridan biri sifatida qadrlanib kelmoqda. Kosaning bandi va orqa oyoqlarini idish tagiga tirab turgan, og'zi va oldingi oyoqlari bilan kosaning tepa qismini mahkam ushlagan ajdaxoning ko'rinishi hayratga soladi kishini.

Lodonga tashrif buyurganlarning diqqatini shahar markazidagi ko'm-ko'k bog'da qad ko'tarib turgan arxitektura majmuidan o'rin olgan Mirzo Ulug'bek tasviri darhol o'ziga tortishi tabiiy. Bu yerda Soxibqiron Amir Temurning sevimli

¹ Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. T., 2001.142- bet.

nabirasi Ulug'bek jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan allomalar orasida tasvirlangan. Mashur o'zbek olimi tuzgan yulduzlar jadvali Oksford universiteti olimlari tomonidan XVII asrda lotin tiliga tarjima qilingani faxr bilan tilga olinadi. Ta'lim soxasidagi innovatsion yo'nalishlarni o'quv jarayoniga tadbiq etayotgan bu nufuzli oliy ta'lim markazida Mirzo Ulug'bekning nomi Oydagi kraterlardan biriga berilganidan mamnun ekanliklarini necha qayta eshitdik.¹

XV asr O'rta Osiyo tarixida mutafakkir, ma'rifatparvar Alisher Navoiy hayoti va ijodi alohida o'rin egallaydi. O'zbek adabiyotining asoschisi, davlat arbobi bo'lgan Alisher Navoiy ijodida o'rta asr madaniyatining xalqchilik g'oyalari o'zining badiiy ifodasini topdi. U o'z asarlarida o'zining insonga bo'lgan chuqur muhabbatini poetik talqin etdi, insoniy his-tuyg'u, orzu-istaklarini e'zozlashga haqiqat va baxt uchun kurashishga da'vat etdi. Temuriylar sulolasi davrida O'rta sharqning o'rta asr madaniyati va san'ati gullagan davrini boshdan kechirdi. Bu davrlarda hashamatli va go'zal binolar vujudga keldi, devoriy rassomlik, amaliy-dekorativ san'at sohasida nafis asarlar yaratildi. Bu hol so'zsiz, me'morlik va tasviriy san'atda qator yangi an'analarining vujudga kelishi va rivojlanishiga sabab bo'ldi. Jumladan, birinchi bor vujudga kelgan yirik va murakkab me'morlik ansambilari shahar kompozitsiyada muhim o'rinni egallay boshladi va an'anaviy me'morlik shakl va uslublarini qayta ko'rib chiqishini taqozo etdi. Ayniqsa me'morlikning rangli bezak bilan boyish katta badiiy-estetik ahamiyat kasb etdi. Albatta rangli bezak O'rta Osiyo an'anaviy me'morligining ham ajralmas qismi bo'lgan. Lekin XIV asrga kelib, binoning ichki va tashqi pardozida alohida o'rinni egallay boshladi. Sirli sopol taxtachalardan ishlangan rangli naqshlar XIV asr oxirlaridan keng tarqala boshlagan o'yma sirli naqshlarning keng ko'lamda amalda tatbiq etilishi o'rta sharq xalqlari ijodiy fantaziyasining katta yutug'u bo'ldi. O'rta Osiyo me'morchiligida sodir bo'lgan o'zgarishlar ilk bor. Ko'hna Urganchdagi To'rabek xonim maqbarasida namoyon bo'ldi. To'rabek xonim

¹ Hurriyat // №11 (919). 2015 yil 11-mart.

maqbarasi xonaqosi. Bu soʻz yuritilayotgan davrning eng nafis inshootidir. Uning tarixida ziyoratxonaning yirik olti yoqli zali ajralib turadi, unga ikki tomondan goʻrxona va peshtoqli dahliz kelib tutashgan ziyoratxona gumbazi uch qobiqli boʻlib shundan tashqisi hozir buzilib ketgan konussimon gumbaz yorugʻlik tushib turadigan darchali baland tuzilmaga oʻrnatilgan. Ziyoratxona gumbazi ichki qismining nozik gul-oʻsimlik naqshlari bilan toʻla murakkab geometrik naqshli oʻymakor qadama qoplamasi nihoyatda goʻzal¹.

Xorazm ustalari yaratgan bu ajoyib yodgorlik anʼanalari keyinroq Temur farmoyishi bilan Samaqand va saltanatning boshqa yerlarida keng foydalanilgan. Shu maqsadda Xorazm ustalari keng jalb etilgan.

XIV asr oxiri va XV asr boshlarida, ayniqsa Samarqandda katta qurilish ishlari olib borilgan, hashamatli va goʻzal binolar oʻralib, olti darvoza orqali kirilgan. Shahar baland qoʻrgʻon boʻlib, uning saroylari boʻlgan. Bu davrda pishiq gʻishdan qurilgan va moviy rang koshinlar bilan bezatilgan machit madrasa va maqbaralar, osmon oʻpar minoralar qad koʻtardi. Shunday yodgorliklardan biri Bibixonim jome machitdir. XIV – XV asrlarda bunyod etilgan bu yodgorlik Oʻrta sharqdagi baland binolardan boʻlib uning qurilishida alohida eʼtibor berilgan. Bibixonim machit katta toʻrtburchak shakldagi maydonni egallan boʻlib, maydon atrofi esa devor bilan oʻrab chiqilgan. Uning toʻrt burchagida nafis minoralar boʻlgan. Machit sharqqa qaragan juda katta peshtoqli darvoza bilan boshlangan. Machit hovlisining atrofi ustunli ochiq ayvonlar bilan oʻralgan boʻlib, hovlini ikki tomoni oʻrtasida uncha katta boʻlmagan peshtoq-gumbazli binosi boshlangan. Hovlini ichkarisidagi 40 metrli peshtoq burchaklariga qirrali minora ishlangan. Shu peshtoq bilan machitning asosiy “muqaddas” yarim sferik gumbazli binosi boshlangan.

¹ Jaloliddin Mangeberdi. T.,1999. 59- bet.

Hozirgi kunda darvoza va asosiy bino qoldiqlari o'zining hashamatliligi bilan kishini hayratlantiradi. Machitning ichki va tashqi tomoni sirli koshinlar bilan bezatilgan. Bino bezagida ko'k sarg'ish oxra, yashil rang gammasi, ayniqsa moviy rang asosiy o'rinni egallaydi.

O'rta asr va O'rta sharq me'morligining haqiqiy durdonasi bu Temuriylar maqbarasi bo'lib, o'zining tantanavor monumentalligi va dekorativligi bilan ajralib turadi. Bino sodda me'morlik hajmlarida sakkiz qirrali asos silindrik barabon va qirrali ko'k-moviy gumbazdan tashkil topgan, ichki qismi juda ser jilva, devorlari marmar bilan pardozlangan, o'yma va rangli naqshlar ham binoning ichki qismini alohida fayz kiritgan.

Albatta, Temur va temuriylar davri me'morligini "Shohizinda" me'morlik kompleksisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Afsonaviy Afrosiyob yonbag'rida joylashgan bu ansabl VI-VII asrlada bu yerda qurila boshlagan maqbaralar o'rniga qurilgan bo'lib bu joy islom diniga qadar ham muqaddas sig'inish joyi bo'lgan. Afsonalarga ko'ra, shu yerda keyinroq musulmonlar avliyosi bo'lgan Qusam ibn Abbos maqbarasi bo'lib go'yo u shu yerda tirilib, yer ostiga kirib ketgan va oxiratgacha qaror qilgan emish "Shohizinda" ("Tirik podsho", "tirik shoh") nomi ham shundan olingan.

Hozirgi Shohizinda ansanbili XIV-XV asrlarning birinchi yarmida qurilgan yodgorliklardan tashkil topgan bo'lib, bu 1434-1435 yillarda Ulug'bek tomonidan qurilgan. Kirishga yaqin joyda XV asrning qo'sh maqbarasi turadi gumbazi baland baroban ustiga joylashgan. Bir-biriga yaqinqurilgan qator maqbaralar Temur tomonidan XIV asrning 70-80 yillarida qurdirilgan. Ansambl so'ngida esa temuriylarga qadar qurilgan maqbaralar ansambili va Qusam ibn Abbos maqbarasi bo'lib, unda juda sergul va nafis ishlangan qabr toshi qo'yilgan. XIV asr o'rtalarida qurilgan Xo'ja Ahmad maqbarasi butun ansamblni tugallaydi. Ansambldagi maqbaralar turli davrlarda qurilgan bo'lishiga qaramay, hammasi yagona me'morlik kompozitsiyasi sifatida idrok etiladi. Me'morlar har safar

yangi maqbara qurganlarida rel'efni (yer sathi xarakteri va qiyaligi) hamda avvalgi qurilgan maqbaralarining xarakterini hisobga olgan holda, shunday hajm va bezak tanlaganlarki, bu so'zsiz, ularning yagona g'oyaviy-badiiy ohangga moslashishiga xizmat qilgan. Bu davrda qurilgan maqbaralar boshqalardan o'zining badiiy emotsional tomoni bilan ajralib turadi. Sirli koshinva ajoyib naqqoshlik san'ati butun ansambilkga ajoyib fayz kiritadi. O'sha davr kishilarning didlarini, tushunchalarini ifodalaydi. Peshtoqlaridan biriga "Bu yer jannat bog'i, bu yerda baxt yulduzlari ko'milgan", deb yozilgan so'zlarda butun ansamblning g'oyaviy-badiiy va falsafiy mazmuni o'z o'zini ifodasini topgan. O'sha davrda O'rta Osiyoning ko'pgina yerlarida ajoyib me'morlik kompozitsiya va ansamlari vujudga kelgan.

Shahrisabzdagi Oqsaroy(1380), Turkistondagi Ahmad Yassaviy me'morlik kompleksi ham O'rta sharq me'morlarining ajoyib san'atini ko'z-ko'z qiladi.

Sohibqiron qurdirgan binolar qadimgi Misr, Gretsiya va Rimdagi jahon me'morchilik madaniyatining durdonalari deb tan olingan Paxpenon, Boalbek qasrlaridan, Misr ehromlaridan qolishmaydi. Hatto rang-barang bezaklarining naqshlarining mutanosib ravishda yaxlit kompozitsiyani tashkil etishi jihatidan ulardan ustun turadi.

Shahrisabzdagi Oqsaroy binosi Amer Temur tomonidan 1380-1404 yillar davomida qurdirgan bo'lib, o'lchamlarining kattaligi, salobati bilan boshqa obidalardan ajralib turadi. Uning tarixi (plani)o'ziga xos shaklga ega va bu boshqa obidalardan qo'llanilmagan. Bino tarxi ikkita bir-biriga aynan mos poydevori qismdan iborat bo'lib, bosh ko'rinishida (fasada) ikkita yarim aylana shaklida qurilgan minora bo'lib uzviy bog'lanib ketgan. Binoning tashqi ravoqi peshtoq orqali ichki kichik ravoq bilan birgalikda ikki qismini bir-biriga bog'lab, yaxlit majmuani-kompozitsiyani tashkil etadi. Ichki ravoq va mehrobi o'lchamlaridan

hamda binoning balandligiga nisbatan ma'lum bir mutanosiblikda kichikroq olinishi kuzatuvchiga ichki ko'rinishini ham yaqqol namoyish qiladi.¹

O'rta Osiyoda yashovchi o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz xalqlarining yashash va turmush tarsi bu me'morlikning o'ziga xos milliy tomonlarini belgilashda muhim rol o'ynadi. Ajoyib o'ymakorlik san'ati bilan bezatilgan eshiklar, ganch suvoq ustidan ishlangan devoriy rang naqqoshligi xonalarni bezashda ishlatildi, turli gulli gilam, choyshab va boshqa buyumlar uyg'unlikda shu davr xalq san'atining ajoyib fazilatini va uning yuksak sintezini namoyon etdi.

O'rta Osiyo, umuman, o'rta sharq madaniyatida kitobni bezash xattotlik va miniatyura san'ati tarixida o'ziga xos qaytarilmas jozibasi bilan ajralib turadi. Bu san'at taraqqiyotida esa Eron, O'rta Osiyo, Afg'oniston rassomlari katta hissa qo'shdilar.

Davlatimiz Rahbarining "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida ta'kidlab o'tilganidek: "Bugun, oradan deyarli ming yil o'tganidan keyin ham biz o'rta asrlarda yashab ijod qilgan, jahon sivilizatsiyasi rivojiga bebaho hissa qo'shgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining dahosi, ilm-fanning turli yo'nalishlaridagi izlanishlari va qomusiy bilimlari oldida hayratga tushamiz"².

Darhaqiqat shunday, Temur va temuriylar davrida nafis kitob va xattotlik san'ati ham rivoj topdiki, uning tarixi, jozibasi, jilosi hali-hanuz o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Uzoq o'tmishda bosmaxonalar bo'lmagan. Kitoblar qo'lda ko'chirilgan. Qo'lda ko'chirilgan kitoblar nafaqat mazmunan, balki tashqi

¹ A.Do'stov. Xronologiya va metrologiya. Qarshi-2014. 19-21-betlar.

² "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati" xalqaro konferensiya materiallari. 15-16 may, Samarqand. T: O'zbekiston- 2014.

ko'rinishi va bezagi jihatidan ham kitobxonlarning talab-ehtiyojlari va didiga javob berishi, odamlarda ma'naniy va estetik dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilishi lozim edi. Shu boisdan ham Temur va temuriylar davrida nafis kitob va xattotlik buyuk san'at darajasiga ko'tariladi. Bu nafis kitob yaratish jarayonining misilsiz darajada murakkab va og'irligi turli xil kasb-hunar egalari mehnatining ma'lum bir dasta singari jamlanishi bilan belgilanadi. Chunki kitob yaratish jarayonida xattot (kalligraf), musavvir, lavvoh (lavha chizuvchi), sahhof (muqovachi) ishtirok etadi.

Ota-bobolarimiz tomonidan nafis kitob yaratishda ishlatilgan Samarqand, Buxoro qog'ozlarining dovrug'i doston bo'lgan. Kitoblarni yaratishda unga turli xil suyuqlik moddalar va ranglar ishlatilgan. Kitobdan yoqimli va xushbo'y hid kelib turishi uchun juda sifatli gulob yoki anbar siyohga qo'shilib yozilgan. Musavvirlar ishlatadigan bo'yoqlarda oltin va kumush eritmalari aralashtirilgan, sahhof esa muqovaning go'zal bo'lishi uchun charmlardan ustalik bilan foydalangan.

Shu o'rinda bugungi davrda dunyo miqyosida kitob o'qimaslik "kasali" keng quloch yoygan bir paytda chop etilayotgan kitoblarda nafaqat chiroyli tasvirlar balki xushbo'y ufor taratuvchi moddalar ishlatish lozimdir.

Og'ir va mashaqqatli mehnatlar evaziga yaratilgan har bir kitobning o'zi shubhasiz katta bir san'at asari edi. Bunday kitoblar asosan shohlar, amirlar, xonu sultonlar buyurtmalari asosida yaratilgan va maxsus kutubxonalarda e'zozlab saqlangan, qo'ldan-qo'lga tegmay o'qilgan.

XIV-XVI asrlarda nafis kitob va xattotlik sanatining buyuk namoyandalari o'sib etishadi. Bular Mir Ali Tabriziy, Abduraxmon Xorazmiy, Sulton Ali Mashxadiy, Mir Ali Qilqalam, Sulton Ali Xandon, Halvoiy, Rafiqiy, Mirak Naqqosh, Bexzod, Shoh Muzaffar va boshqalardirlar.

Xattotlik san'atining buyuk namoyandalaridan biri Sulton Ali Mashhadiy bo'lib, u 1432 yilda Mashhadda tug'ilgan. Yoshlikdan husnixatga qiziqqan. Sulton Ali husnixat sultoni darajasiga ko'tariladi va «Qiblatul-kitob» («Kitoblar qiblasini») va «Sultonun-xattotin» («Xattotlar sultoni») deb elda nom taratadi¹.

Sulton Ali 1461 yilda Nizomiyni «Mahzanul-asror» dostonini, 1464 yilda Hofiz devonini va 1465-1466 yillarda Alisher Navoiyni devonini ko'chirgan.

Sulton Ali Mashhadiy Husayn Boyqaro kutubxonasida ishlagan va Hirot xattotlariga rahbarlik qilgan. Sulton Ali shaxsan Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy topshiriqlarini bajargan va ularning asarlarini ko'chirgan. U har kuni Husayn Boyqaro uchun 50, Navoiy uchun 20 bayt ko'chirar edi. Bundan tashqari Sulton Ali Nizomiy, Fariddin Attor, Xofiz Sheroziy, Dehlaviy, Jomiy asarlarini ham ko'chirish bilan shug'ullangan. Mashxur xattot ko'chirgan 50 dan ortiq asar bizgacha etib kelgan. Bu asarlar Toshkent, Sankt-Peterburg, Parij, Berlin, Qohira va dunyodagi boshqa shaharlarda saqlanmoqda. Sulton Ali Mashhadiy ko'chirgan kitoblar orasida Navoiyni mashxur «Hamsa»si ham munosib o'rin olgan.

Sulton Ali Mashhadiy xattotlik san'atidan tashqari o'ymakorlik san'atining ham moxir ustasi bo'lgan. Husayn Boyqaro qabr toshidagi o'yib yozilgan matn parchasi ham u tomonidan yozilgan.

Sulton Ali Mashhadiy she'riyat bobida ham qalam tebratgan. Navoiy uning ijodiga katta baho beradi va uning ijodidan quyidagi baytlarni keltiradi:

Gul dar bahor e-on ruhi gulgul namunaest,

Chun ashki man, ki az dili purxun namunaest.

Ma'nosi: Mening ko'z yoshim qonga to'la yuragimdan namuna bo'lganidek bahor guli uning gulgun yuzidan bir namunadir.

¹ R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T., 2010. 476-477-betlar.

Sulton Ali umrining so'nggi yillarini Mashhadda o'tkazadi va shu erda 1520 yilda vafot etadi.

Davlatimiz Rahbari ta'kidlab o'tganlaridek: "O'rta asrlar Sharq daholarining buyuk kashfiyotlaridan iborat ilmiy merosning chuqur qatlamlari hali to'liq o'rganilmagan va o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Axir, faqatgina O'zbekistonning o'zida kitob fondlarida 100 mingtadan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Ularning asosiy qismi YUNESKOning Madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining qo'lyozmalari Yevropa va Osiyoning Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Rossiya, Fransiya, Misr, Hindiston, Eron va boshqa ko'plab mamlakatlaridagi kutubxonalarning "oltin fond"ini tashkil etadi. Bu faktlar nimadan dalolat beradi? Bu, eng avvalo, o'rta asrlarda yashab, ijod etgan buyuk Sharq alloma va mutafakkirlarining tengsiz asarlari va ilmiy merosi faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu – bebaho boylik, yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, kerak bo'lsa, yangi kashfiyotlar uchun ajoyib materialdir."¹

Temur va temuriylar sulolasi davrining ulkan muvaffaqiyatlaridan biri tasviriy san'atning gurkirab o'sganligi bo'ldi. XIV va XVI asrlarda tasviriy san'atda Behzod, Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Maqsud Muzahhib, Xoja Muhammad Naqqosh, Shoh Muzaffar va boshqalar barakali ijod qildilar.

Xalqimizning ajoyib tasviriy san'at ustalari yaratgan asarlar o'ziga xos uslubga ega bo'lish bilan birga u fantastik mavhumlikdan hayotiylikka, anialikka tomon o'sib borgan. Bizgacha etib kelgan va ma'naviy meros boyliklariga qarab xulosa qiladigan bo'lsak tasviriy san'at yodgorliklarini yo'nalishlariga qarab

¹ "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" xalqaro konferensiya materiallari. 15-16 may, Samarqand. T: O'zbekiston- 2014.

quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: portretlar, hayotiy lavhalar, peyzaj, binolarga solingan suratlar, badiiy asarlarga ishlangan rasmlar va hokazo.

Biz fikr yuritayotgan davrda tasviriy san'at ijodkorlari tomonidan hayotiy va aniq buyoqlarda ishlangan Jomiy, Navoiy, Abdulla Xatifiy, Behzod, Husayn Boyqaro, Bobur, Shayboniyxon va boshqalarning portret — su'ratlarini ko'ramiz.

Rassomlar tomonidan yaratilgan asarlarda, rasm-portretlarda haqiqiy hayot voqeligi o'z aksini topgan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tub mohiyati mohirlik bilan ko'rsatilgan.

Kamoliddin Behzod (1455-1533/37) o'z zamonasining mohir rassomi va o'ta noyob qobiliyat egasi. U 1455 yilga yaqin Hirotida tug'ilgan. Ota-onadan yoshlikdan yetim qolgan Behzodni Husayn Boyqaro kitobdori Mirak Naqqosh o'z tarbiyasiga olib, unga homiylik ko'rsatadi. O'zining qobiliyati va iqtidorligi bilan boshqalardan ajralib turadigan Behzod yoshlikdan rassomlik san'atiga qiziqadi. Ko'p o'tmay u ilm-fan, san'at va adabiyot ahllari orasidan o'ziga munosib o'rin topadi. Ma'rifat va ma'daniyat homiysi Alisher Navoiy noyob iste'dod va qobiliyat egasi bo'lgan Kamoliddin Behzodga alohida e'tibor beradi va unga har tomonlama yordam qo'lini cho'zadi. 1510 yilgacha bo'lgan umrini Hirotida o'tkazgan Behzod keyinchalik Ozarbayjonga-Tabrizga ketadi. U erda Behzodni safaviylar poytaxti kutubxonasi va san'atkorlarining boshlig'i etib tayinlaydilar. Kamoliddin Behzod shu yerda taxminan 1533-1537 yillar orasida vafot etadi.

Kamoliddin Behzod o'zining xayratomuz rassomchilik san'ati bilan «Moniy soniy» (ikkinchi Moniy¹) va «Sharq Rafaeli» nomi bilan jahonga mashxur bo'lgan. U rassomlikda Hirot maktabiga asos soladi va ustoz san'atkor sifatida Turkiston o'lkasi, Eron, Ozor yurti va boshqa o'lkalarda tasviriy san'atning rivojiga katta hissa qo'shadi.

¹ Moniy – afsonaviy Xitoy rassomi

Xondamir «Xabib us-siyar» asarida Bexzod ijodiga quyidagicha baho beradi:

Mo'yi qalamash zi ustodi,

Jon doda ba surati jamodi.

(Ma'nosi: Ustozligi tufayli uning muyqalami tuklari toshga — jonsiz suratga jon bag'ishlar edi.)

Kamoliddin Behzodning san'atkorlik mahorati va asarlarining ta'sir kuchini ko'rsatuvchi quyidagi bir voqea Vasifiyning “Badoyiul-vaqoe” kitobida keltiriladi: «Kunlarning birida Begzod yangi ishlagan bir suratini Navoiyning oldiga olib keladi: ajoyib bog', daraxtlar, daraxtlar shohida qushlar... gullar qulf urib ochilib yotibdi, ariqlarda zilol suvlar. Bog'da nuroniy Alisher Navoiy. U bir qo'li bilan hassaga tayangan, ikkinchi qo'lida bir tovoq, tovoqda oltinlar. Navoiyning atrofida ilm-fan, san'at va adabiyot ahllari. Go'yo Navoiy ularning ijodiy ishlaridan shod bo'lib, boshlaridan oltin sochmoqchi... Suratdan zavqlangan Navoiy bunday bayt aytadi:

Naqqosh, ajab sahora munaqqash kardi,

Ey vaqti tu xush, ki vaqti mo xush kardi.

(Ma'nosi: Naqqosh, ajoyib sahifani naqshlabsan, vaqting xush bo'lsin, zeroki, bizni xushvaqt qilding.)

Atoqli va mashhur rassom Kamoliddin Behzod tomonidan yaratilgan Shoir Abdullo Xotifiy, Xusayn Boyqaro, Shayboniyxon portretlari, Sa'diyning “Bo'ston” kitobi va Nizomiyniig “Hamsa”siga ishlangan rasmlar bizgacha etib kelgan va u hozir xalqning nodir yodgorliklari sifatida Toshkent, Sankt-Peterburg, London, Texron, Qobul va boshqa shaharlarning muzey va kutubxonalarida saqlanmoqda.

Londondagi Viktoriya va Albert muzeyida saqlayotgan yana bir eksponat-miniatyurani ilk bor ko'rib, mo'yqalam bilan chizilgan manzaralardan zavq olib,

uzoq o'tmish xaqida boy taasurotlarga berilib, ayniqsa miniatyuraning hajmidan hayratga tushib, undagi piguralar (personaj)ni, ta'riflangan muxitni, intererni o'rganishga ham ancha vaqt zarur bo'ladi. Aslida, bu miniatyura emas miniatyura qonuniyatlari hisobga olinib chizilgan yirik polotnning o'zginasi bo'lib ko'rinadi. Asarning tarkibi murakkabligini, figuralar joylashuvi va biri ikkinchisining harakatini qaytarmasligini ko'ramiz, asar mustaqil estetik qiymatga ega. U biror adabiy asarga ishlangan illyustratsiya emas.

Kamoliddin Behzod va uning ijodiy maktabiga tegishli bu nafis asarlar birgina, yaxlit kompozitsiyada voqeaning turli bosqichlarini, personajlar xolatining dinamikasini, harakatlar bir-biriga ulanib ketishini, harakatdagi tasvirni, davriy izchilikni ifoda etish yo'lini ixtiro qilganlarini ko'ramiz.¹

Kamoliddin Behzod juda ko'plab nomdor va qobiliyatli shogirdlar yetishtiradi. Sulton Muhammad Kamoliddin, Qosim Ali, Shoh Muzaffar, Mahmud Muzahhib kabi musavvirlar shular jumlasidandir.²

Temur va temuriylar davri madaniyatining yuksak rivojlanganligidan dalolat beruvchi yana bir soha - bu musiqa san'atidir. Buyuk Sohibqiron Amir Temur haqidagi manbalarda va xalq rivoyatlarida uning musiqa san'atiga juda katta e'tibor bilan qaraganligi, turli mamlakatlardan poytaxti Samarqandga ko'plab san'at shina-vandalarini to'plab, bazmi jamshid davralarini musiqa ba qo'shiq ixlosmandlari bilan ko'rganligi hikoya qilinadi. Ibn Arabshoh "Amir Temur tarixi" kitobida Temur saroyida juda ko'plab musiqashunoslar, hofiz va qo'shiqchi san'atkorlar ham bo'lganligini yozadi: «... (Yana) Xoja Muhammad az-Zohid Buxoriy, ulug' tafsirchi, xadischi, hofiz bo'lib, Qur'on ul-karimni yuz jildda tafsir qilgan... Qorilardan mana shular ikkalasi va (yana) mavlono Faxruddin bor edi. Qur'onni qiroatda ham, savtda ham tajvid bilan yod olgan kishilardan Abdullatif

¹ Hurriyat // № 11 (919). 2015 yil 11-mart.

² Sh. Karimov . A.Shamsiddinov. Vatan tarixi. T.,1997.118-bet.

ad-Domg'oniy, mavlono Asaduddin, Sharif Hofiz Xusayniy, Mahmud Muhriq al-Xorazmiy va Jamoliddin Axmad al-Xorazmiy va musiqa ilmida ustoz bo'lgan Abdulqodir al Marog'iy edi».

Bu davrda musiqa san'atining rivoj topganligini shu narsadan ham bilsa bo'ladiki, A. Navoiy «Mezonul-avzon» asarida xalq qushiqchiligining 8 turi bo'lganligini yozadi. Bu-tuyuq, changi, turkiy, orzuvoiy (yoki oruzvoiy), muhabbatnoma, mustazod va boshqalardir. Ayrim miniatyuralar, badiiy obrazlar va boshqalar xalq san'atining ham rivolsheganligidan dalolat beradi. Xalq kuylari va qo'shiqlari musiqa san'atining rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

X va XII asrlarda vujudga kela boshlagan musiqa san'atining yangi o'n ikki maqom turi bu davrga kelib yuksak bosqichga ko'tariladi, yangi kuylar bilan boyiydi. O'n ikki maqom ko'pgina kuylar birikmasidan tashkil topgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: Rost, Isfaxon, Iroq Zirafkan, Bo'zruq Xijoz, Busliq Ushshoq, Xusayniy, Zangula, Navo, Rahoviy. Bu maqomlarning har biri ikki shuba (qism)dan iborat bo'lib, jami 24 shubani tashkil etadi: Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgox, Muxayyar, Xisor, Muboraki, Nayrez, Nishopurak, Royi Iroq, Mag'lub, Rakb, Bayot, Zabul, Avj, Navro'zi xora, Ma'mur, Ashiron, Navro'zi sabo, Xumoyun, Nuhuft, G'azal, Arabon va Ajam. Xalq o'rtasida «Shashmaqom» (olti maqom) nomi bilan kuylanib kelinayotgan musiqa asarlari yuqorida sanab keltirilgan o'n ikki maqom zaminida shakllangandir.

Musiqa san'atining taraqqiyotini she'riyat olamidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi. Musiqa va she'riyat doimo bir-birini to'ldirib kelgan. Musiqa bilan she'riyat o'rtasidagi aloqani XV asrda yashab ijod qilgan shoir Axmadiy «Sozlar munozarasi» asarida ajoyib badiiy bo'yoqlarda tarannum etadi. Ahmadiy majoziy xarakterda yozilgan o'zining bu asarida sozlar munozarasini beradi. Munozarada ishtirok etgan barcha sozlar: Tanbur, Ud, Chang, Qubo'z, Rubob va boshqalar o'zlaricha kerilib maqtanadilar. Nihoyat ularning munozarasiga Piri xarobot (soqiy) aralashadi va sozlarining har biriga nasixatlar qiladi, ularning har birining

o'ziga xos fazilatlari borligini ta'kidlaydi. Bu asar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan didaktik ijod mahsuli hamdir. Shoir maqtanchoq, mutakabbir va xudbin kishilarni tanqid qiladi, ularni insofga, kamtarlikka va ahillikka chaqiradi.¹

Xullas, musiqa san'ati taraqqiyotida Temur va temuriylar zamonida erishilgan muvaffaqiyatlar xalqimizning ma'naviy meros boyligi bo'lib, avlodlar ongida badiiy estetik qarashlar va olijanob insoniy fazilatlarning shakllantirishning muhim vositasidir.

XVI asr boshlarida Shayboniyxon va uning sulolasi hukmronlik qilgan yillarda san'at va madaniyat qator yangi an'analar bilan boyidi. Shayboniylar davrida Buxoro davlatining yirik markaziga aylandi. Bu yerda dunyoviy fanlar musiqa xattotlik va miniatyra rassomligi rivojlandi. Temuriylar davrida qurilgan binolarga o'xshash hashamatli, muhtasham binolar qad ko'tardi. Ayniqsa Buxoroning qiyofasi beqiyos darajada o'zgardi. Temuriylar davri me'morligining yaxshi an'analari rivojlantirilib, nodir inshoatlar qurildi. Peshtoqlari bir-biriga qaratib qurilgan qo'sh madrasalar ko'plab qurildi. Buxorodagi markaziy ansambllardan biri hisoblangan katta Jome machiti va Mir Arab madrasasi ham shu usulda qurilgan.

XVII asrda Shayboniylar o'rniga kelgan ashtarhoniylar sulolasi davrida ham Buxoroda katta qurilishlar davom etdi. Shunday yodgorliklardan biri Abdilazizxon madrasasi diqqatga sazovordir.

Shu asrda Samarqand Registonida Ulug'bek (XV asr) unga qarama-qarshi tomonda qurilgan Sherdor (XVII asr) va ular o'rtasida joylashgan. Tillaqori madrasalari (XVII asr) dan iborat ansambllar yaratildi. Bu binolar bevosita

^{1 1} R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T., 2010.480-482-betlar.

an'anaviy me'morlik prinsiplari asosida qurilgan, sirli koshinlar bilan bezatilgan. Sherdor madrasasi peshtoqi esa sherlar tasviri bilan bezatilgan.

Shayboniylar davrida, ayniqsa XVI asrning birinchi yarmida Buxorodan tashqari va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida ham bir qator yirik me'morlik obidalari qurildi. Jumladan, Buxoro yaqinida qurilgan Chor Bakr kompleksi Toshkentdagi katta madrasalardan hisoblangan Ko'naldosh madrasasi fikrimiz dalilidir.

XVIII asr va XIX asr boshlarida Xiva xonligining poytaxti Xiva inqirozga yuz tutib borayotgan O'rta Osiyo monumental me'morligi birmuncha jonlangandek bo'ldi. Bu yerlarda shaharni qator madrasa, minora va machitlar bezadi.

Ayniqsa xon saroylari, Toshhovli (1832-1841) madrasasi diqqatga sazovordir. U xalq me'morligi san'ati bilan uzviy bog'liq. Binoning devor eshik va ustun ravoqlari juda boy bezaklariga ega yog'och o'ymakorligi, devoriy rang naqqoshligi va sirli koshinlar bezatishda keng ishlatiladi.

XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyodagi feodal xonliklarning iqtisodiy inqirozga yuz tuta borishi san'at va madaniyatda ham o'z tasirini ko'rsatdi. Yirik monumental me'morlik san'ati deyarli tushkunlikka uchraydi. Shu tushkunlik davrida ham grajdan me'morligida O'rta Osiyo me'morligining ajoyib an'analari davom etdi.

2014 yilning 15-16 may kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etgan BMT Jahon sayyohlik tashkiloti a'zosi, Tinch okeani mintaqasi yozuvchilari sayohati uyushmasi bosh kotibi Sagar Ahluvalia (Hindiston): "O'zbekistonning qadimiy obidalari, chiroyli tabiati, zamonaviy shaharlari butun dunyo sayyohlarini o'ziga chorlamoqda. Mamlakatingizda xalqaro turizm jadal

rivojlanayotgani buning tasdig'idir.

Bu yerda asrlar davomida bunyod etilgan qadimiy yodgorliklar juda ko'p. O'zbekistonda bu madaniy merosni - tarixiy obidalarni asrab-avaylash, jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalarni ulug'lashga alohida e'tibor qaratilayotgani tahsinga sazovor"-deya ta'kidladi.¹

¹ "Jahon" AA // 02.10.2014

Xulosa

San'at keng ma'noli tushunchadir. Manbalarda san'atning asosan ish, mehnat, mahorat, kasb-hunar kabi ma'nolarni aks ettirishi ta'kidlanadi. Shunga ko'ra san'at, ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik kabi voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi har bir ayrim sohasi; turli amaliy-tadbiqiy sohalarning o'ziga xos ish uslubi, sistemasi: muayyan faoliyat sohasidagi yuksak mahorat, ustalik, iste'dod; adabiyotshunoslikda: badiiy asar poetikasini taminlovchi vosita kabi mazmunlarga egadir¹.

Qadimgi va o'rta asrlarda O'rta Osiyoda san'atning taraqqiyoti tarixini yoritish ekanmiz jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni beqiyos darajada ekanligini ko'ramiz va ishga quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Birinchidan, Qadimgi va O'rta asrlarda O'rta Osiyoda san'ati tarixi hozirgi kunda ham tadqiqotchilar orasida o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi ko'rsatib berildi.

Ikkinchidan, O'rta Osiyo hududi "Avesto" vujudga kelgan zamonlardan ilgari vaqtlarda ham o'z etnik tarixi va etnomadaniyatiga ega bo'lgan. Shu maqsadda Markaziy Osiyoda san'at tarixining rivojlanish tarixi va xalqlarning o'zaro bir-biri bilan bog'liqlik tomonlari ochib berildi.

Uchinchidan, O'rta asrlarda O'rta Osiyoda san'at tarixi tarixiy manbalarni o'rganish orqali ilmiy tilda yoritib berildi.

To'rtinchidan, O'rta Osiyoda san'atini rivojlanishiga ta'sir etgan omillar o'rganildi va mintaqaning jahon sivilizatsiyasi rivojida tutgan o'ziga xos salohiyatli o'rni ko'rsatib berildi.

Beshinchidan, Amir Temur va Temuriylar davrida O'rta Osiyoda ilm-fan, madaniyat va san'at misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Jahon sivilizatsiyasida munosib o'rin egallagan bebaho san'at namunalari yaratildi va hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yuqotmay, aksincha jahon ahlini o'ziga mahliyo yetib kelayotganligi manbalar asosida yoritib berildi.

Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqida yana bir bor ta'kidlanganidek: "Shuni esda tutish kerakki, tarixni unutgan xalq, jamiyat o'z yo'lini yo'qotadi. Bunday xalq va jamiyatning kelajagi yo'q"¹.

¹ Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. O'zbekiston ovozi // 13 yanvar 2015 yil. № 5 (31.908)

Tavsiyalar

Birinchidan, “O’rta Osiyoda qadimgi va o’rta asrlar san’ati taraqqiyoti” mavzusida o’quv uslubiy qo’llanmalar tayyorlash;

Ikkinchidan, “O’rta Osiyoda san’at taraqqiyoti” mavzusida OAVlarida chiqishlar qilish, maqolalar chop ettirish;

Uchunchidan, “O’rta Osiyoda san’at taraqqiyoti” mavzuda ma’ruzalar matni tayyorlashda keng foydalanish;

Tortinchidan, “O’rta Osiyoda qadimgi va o’rta asrlar san’ati taraqqiyoti” mavzusida tayyorlangan BMIdan referatlar, mustaqil ishlarni tayyorlashda manba sifatida foydalanish;

Beshinchidan, “O’rta Osiyoda qadimgi va o’rta asrlar san’ati taraqqiyoti” mavzusidagi BMIdagi ilovalardan tarix darslarida foydalanish uchun ko’rgazmali qurollar tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: "Sharq" 1998.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: "O'zbekiston" 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: "O'zbekiston" 2008.
4. Karimov. I. A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: "O'zbekiston" 1998.
5. "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati" xalqaro konferensiya materiallari. 15-16 may, Samarqand. T.: "O'zbekiston". 2014.
6. Jo'rayev N.Q. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.: 2009.
7. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. T.: "O'qituvchi". 2006.
8. Abdullaev N.G'. San'at tarixi. T.: "O'qituvchi". 2001.
9. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. T.: 1997.
10. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenizi va etnik tarixi. T.: 2007.
11. Ahmedov. B. Tarixdan saboqlar. T.: 1991.
12. Ahmedov. B. O'zbekiston tarixi manbalari. T.: 2001.
13. O'zbekiston tarixi. T.: 2003.
14. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. (Birinchi kitob). Qayta tayyorlangan ikkinchi nashri. T.: 2010.
15. Bobojonov, X. Satliqov A. "Avesto" bebaho madaniy meros. Xiva -2000.
16. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T.: 1997.
17. Vohidov S. Qodirov A. Sharq mashhur sulolalari. T.: 2013.
18. Jaloliddin Manguberdi. T.: 1999.
19. Do'stov A. Xronologiya va metrologiya. Qarshi.: 2014.

20. Matniyozov M. Satliqov. Xorazm Ma'mun akademiyasi. 1999.
21. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. T.: "O'qituvchi". 1994.
22. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T.: 1997.
23. Bobojonov X. Satliqov.A. Xorazm Ma'mun akademiyasi. Xiva-2000.
24. Xakimov A. O'zbekiston davlatchiligining shakllanishida madaniyat va san'atning roli. Moziydan sado //. 2003. №3-4 (19-20)
25. Moziydan sado //. 2003. № 3 (19-20)
26. Boboyorov G'. Afrosiyob devoriy rasmlari. Moziydan sado //. 2007. № 3 (35)
27. O'zbekiston tarixi solnomasi. 2-nashri.T.:2011.
28. Культура Среднего Востока, Городостроительная архитектура, Т.,1989.
29. Jamiyat // 2008. №14.
30. Hurriyat // 2015 yil 11-mart. № 11 (919)
31. Fuqarolik jamiyati. 2006. № 4 (8)
32. O'zbekiston ovozi //. 13 yanvar 2015 yil. № 5 (31.908)
33. O'zbekiston ovozi//. Madaniy meros-qadriyatlarimiz ko'zgusi. 18.04.2015. №45 (31.948)
34. Fan va turmush // № 1-2. 2014.

Internet saytlari

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.edu.uz>.
3. <http://www.pedagog.uz>.
4. Jahon AA // 02.10.2014



Soymalitosh rasmlari. Miloddan avvalgi III-I ming yillikning 2-yarmi.



Sarmishsoy rasmlari. (Navoiy viloyati). Mil. va IV-I ming yillik.



Budda haykali. (Bodxisatv). Fayoztepa topilvasi.



Buddaning tosh barelefi (e'ski Termiz topilmasi).




Xoshiyaga tushirilgan ayollar tasviri. Ayritom. Milodiy I-II asrlar.



Adoranta-ayol haykali. Qoratepa. Milodiy II-III asrlar.




**Boddxisatv haykali. Dalvarzintepa. Budda ibodatxonasi.
Milodiy III-IV asrlar.**




Sopollitepa qishloq jamoasining jez muhri.



**Dalvarzin. Qurilishda ishlatilgan va kuyib ketgan guvalalar
(mil. avv. XI-X asrlar).**



Sopolga bitilgan piktografik yozuv belgilari





Afrosiyob



Panjikent



Yerqo'g'on



Britaniya muzeyida saqlanayotgan Mirzo Ulug'bekka tegishli kosa.

